

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKUL’TETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

“402” guruhi talabasi

Raxmonov Jamshidbek

O‘zbekiston-Yaponiya munosabatlari yangi bosqichda (1991-2017yy.)

5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta’lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: **Dots. S.A.Xoshimov.**

Andijon 2018

MUNDARIJA

Kirish

I Bob. Mustaqil O‘zbekistonning Yaponiya davlati bilan o‘zaro hamkorlik alokalarini yo‘lga qo‘yilishi

I.1. O‘zbekiston tashki siyosatining o‘ziga xos jixatlari

I.2. Yaponiya bilan o‘zaro hamkorlik va elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi]

II Bob. O‘zbekiston–Yaponiya iqtisodiy va madaniy hamkorlik aloqalari

II.1. Ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy soxadagi xamkorlik

II.2. Madaniy xamkorlik aloqalari

XULOSA

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

ILOVALAR.

Kirish

Mavzuning dolzarbliqi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2004 yil so‘ngida «Nezavisimaya gazeta»sining muxbiriga interv’yusi, Oliy Majlis palatalarining 2005 yil 28 yanvardagi qo‘shma majlisidagi «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» - deb nomlangan ma‘ruzasida va 2005 yil 7 fevralda xukumatimizning yangi tarkibi bilan o‘tkazilgan yig‘ilishida, «yangi xayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo‘lmaydi» deb nomlangan nutqlarida bugungi kunda Respublikamizda isloxlarni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalarni sanab o‘tar ekan, O‘zbekistonning tashqi siyosatida ustuvor yo‘nalishlarni ham belgilab berdi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov – «O‘zbekiston jahondagi yirik, xalqaro maydonda etakchi o‘rin tutadigan davlatlar AQSH, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya va Evropa Ittifoqining boshqa mamlakatlari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va mustaxkamlashga alohida e‘tibor beradi. Biz Janubiy Koreya Respublikasi, Xindiston, Janubiy –Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq va Arab, Sharqining ko‘plab mamlakatlari bilan yaqin munosabatlar o‘rnatganmiz»¹ - deb bizning tadqiqot ob’ektimiz bo‘lgan Yaponiya Respublikasi bilan bo‘ladigan munosabatlarga alohida urg‘u berib o‘tgan.

Istiqlol tufayli mamlakatimiz tashqi siyosat va diplomatik faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ma’lumki, 130 yil davom etgan istibdod davrida yurtimiz mustaqil tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar va xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan mustaqil ravishda aloqalarni o‘rnatish, diplomatik vakillarni ayriboshlash, xaqqoniy tashqi aloqalarni ta’minlaydigan vazirliklar va muassasalar faoliyat yuritishga mavjud tuzum to‘sqinlik qilardi.

¹ «Халқ сўзи» 2005 йил 8 февраль

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish – davlat faoliyatining yangi va amalda qo‘llanilmagan yo‘nalishlaridan biridir. Yakkaxokimlik tizimi sharoitida O‘zbekiston xalqaro maydonga to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochib chiqish imkoniyatidan maxrum etilgan bo‘lib, o‘zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, etarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi».¹

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, Respublikada demokratik huquqiy jamiyat asoslari faol ravishda vujudga keltirilmoqda. Avvalgi yakkaxokimlik tizimining illatlari qat’iyan tugatilmoqda. Ko‘p partiyaviylik, g‘oyalar va fikrlarlarining xilma-xilligiga toqat qilish real voqealikka aylanmoqda. Yagona mafkuraning yakkaxokimligiga barham berildi. Umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi, chinakam demokratiya, inson erkinliklari va xuquqlarining butun dunyo tan olgan marom va qoidalari tobora ko‘proq qaror topmoqda.²

Ushbu umumiy vazifadan kelib chiqqan xolda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro diplomatik, ilmiy, ilmiy- texnikaviy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy muassasalar, ta’lim sohasidagi faoliyat yo‘nalishlarini kelajakda yanada takomillishtirish yo‘lida foydalanish, uni rivojlantirish, amaliy tajribalarni taxlil qilish tanlagan tadqiqot ishimizning favqulodda dolzarbligiga ishora etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abduganievich Karimov shunday deydi: «Biz jaxondagi barcha ezgu niyatli taraqqiyparvar xalq va millatlar bilan hamjixat bo‘lib, nafaqat g‘arb davlatlarining balki Yaponiya, Janubiy Koreya va Malayziya kabi rivojlangan sharq mamlakatlarida bo‘lganidek, erkin va farovon hayot qurishga intilmoqdamiz».³

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Т., «Ўзбекистон», 1992. 24-бет.

² Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. Тошкент, 1992, 5-бет

³ Каримов И.А. «Ватанимизнинг тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч қудратимизга, халқимизнинг ҳамжихатлиги ва букулмас иродасига боғлиқ». Т., «Ўзбекистон», 2004 й. Б-8.

Bu haqida yana Birinchi Prezidentimiz yaqinda nashr ettirgan asarida shunday fikrlarni ilgari suradi. «Yaponiya va Koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o'ziga xos milliy ma'naviyati xisobidan ham rivojlanishi bugungi kunda hech kimga sir emas».¹

Biz ana shu xalqlardan ibrat olishimiz lozim, o'zimiz uchun kerakli jihatlaridan o'rganmog'imiz kerak.

O'zbekistonning Yaponiya davlati bilan manfaatli aloqalari O'zbekiston tarixining o'ta muxim va ajralmas tarkibiy qismidir. Hozirda mazkur masalani ilmiy asosda, kompleks tarzda, xolisona yoritish Respublikamiz tarixchi - olimlarining oldida turgan vazifalaridan biridir. Shu munosabat bilan shu o'tgan qisqa davrda mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosat va diplomatiya sohasida erishgan muvoffaqiyatlari hamda xorijning ilg'or davlatlari o'rtasida amalga oshirilgan aloqalarini o'rganib chiqish zaruriyati yuzaga keldi. Masalaning dolzarbligi aynan shular bilan asoslanadi.

Mavzuning ilmiy tadqiq qilinganlik darajasi. Tadqiqotning nazariy asosini Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari va mavzuga doir bildirgan fikr hamda nutqlari² tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan jahonning nufuzli xalqaro tashkilotlari va mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalarni o'rnatdi. Shu bois mustaqil O'zbekiston davlatining tashqi siyosat bobida erishgan natijalarini o'zida mujassam etuvchi qator asar maqololar, bukletlar, ilmiy tadqiqotlar yaratilmoqda. Bular qatoriga 1993 yil «Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida. O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi» (T.: O'zbekiston 1993) nomli asarni kiritish mumkin. Unda respublikamizning tashqi siyosati va diplomatiyasi, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. Т.: Маънавият 2008. Б-27.

² Каримов. И. А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т.: Ўзбекистон 1992; Ўша муаллиф. Биздан овоз ва обод Ватан қолсин. Т.: Ўзбекистон 1994; Ўша муаллиф. Ватан саждагош каби муқаддасдир. Т.: Ўзбекистон 1995; Ўша муаллиф. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таъдид, барқарорлик шартлари. Т.: Ўзбекистон 1997. ; Ўша муаллиф. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.: Шарқ. 1998; Ўша муаллиф. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият. 2008;. Ўша муаллиф. Жаҳон молиявий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон 2009;

mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirgan xorijiy davlatlarga qilgan safarlari tahlil qilinadi. 1995 yil «O‘zbekiston Respublikasi-mustaqil davlat» (T.: Adolat 1995) nomli kitob nashr etildi. Uning XV bobida mavzuga doir muhim ma’lumotlar mavjud. 1999 yili esa «O‘zbekistonning 7 zafarli yili»¹ nomli asar nashr etildi. Kitobning V bobida O‘zbekistonning tashqi siyosati, uning xorijiy mamlakatlar bilan, jumladan Yaponiya davlati bilan olib borgan o‘zaro manfaatli aloqalari va boshqa masalalar yoritilgan. 2000 yil «O‘zbekistonning yangi tarixi»²ni uchinchi kitobi nashr etildi. Mazkur kitobda mavzuga oid ma’lumotlar juda qisqa berilgan. Shu yili «O‘zbekiston tarixi: qisqacha ma’lumotnoma». (T.: Sharq 2000) nomli kitob ham nashr etildi. Kitobning 32-bobida yurtimizning mustaqil tashqi siyosati, uning jahon xamjamiyatiga qo‘shilishi kabi masalalari qatorida Yaponiya bilan o‘rnatilgan o‘zaro aloqalar qisqacha berilgan. Mavzuni o‘rganishda «O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi»³ ham muhim rol o‘ynaydi. Ensiklopediyada Respublikamizning xorijiy davlatlar bilan o‘rnatilgan aloqalari, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning chet el mamlakatlariga qilgan davlat, rasmiy va amaliy safarlari hamda xorijdan O‘zbekistonga kelgan davlat va hukumat rahbarlarining tashriflari maxsus jadvallarda berilgan. O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasining mohiyati hamda asosiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq masalalarini o‘rganishda Saidov A. Xning asari⁴ muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston solnomasini yaratishda Tyurikov V., Shog‘ulomov R larning xizmati beqiyos kattadir. Mustaqillik yillarida ular tomonidan bir necha asarlar⁵ yaratilgan bo‘lib, ularda istiqlol yillarida mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va

¹ Янги Ўзбекистон 7 зафарли йили Т.: Шарқ 1999.

² Жўраев. Н., Файзуллаев Т., Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т. Шарқ. 2000.

³ Ўзбекистон Республикаси Энциклопедияси. Т. Қомуслар. Бош таърифи. 1997-2004 йй.

⁴ Саидов. А. Х. Халқаро ҳуқуқ. Т.: Адолат 2001.

⁵ Тюриков В., Шоғуломов Р. Мустақил Ўзбекистон республикаси: Унитилмас воқеалар ва саналар (1991-1996) Т. : Ўзбекистон 1998: Ўша муаллифлар. Мустақил Ўзбекистон Республикаси: Унитилмас воқеалар ва саналар (1996-1998) китоб 2. Т.: Ўзбекистон 2000. Ўша муаллифлар. Истиқлол йилномаси. Ўзбекистон республикаси: Одамлар, саналар, воқеалар (1991-2001). Т.: Ўзбекистон 2001: Ўша муаллифлар. Ўзбекистон Республикаси: 100саволга 100 жавоб Иккинчи китоб. Т.: Ўзбекистон 2001.

madaniy hayotida ro'y bergan unitilmas voqealar, sanalar aks ettirilgan, shuningdek, tashqi siyosat va diplomatiyamizga doir dolzarb masalalarga javoblar berilgan. Jumladan O'zbekiston-Yaoniya hamkorligi, imzolangan ikki tomonlama shartnomalar, o'zaro bordi keldi aloqalar, ochilgan qo'shma korxonalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, istiqlol yillarida tadqiq etilayotgan masalaga oid asarlar, maqolalar va ma'lumotnomalar ham nashr etilgan.¹ Ularda mustaqil O'zbekiston diplomatiyasi erishgan yutuqlar jumladan o'zbek-yapon hamkorligiga oid masalalar ko'rib chiqiladi. Biroq biz yuqorida ta'kidlagan asar va maqolalarning tadqiqot ob'ektlari boshqa bo'lganligi bois ushbu tanlangan masalani keng va atroflicha yoritib bera olmaydi. Shu kunga qadar O'zbekiston-Yaponiya davlatlarining o'zaro hamkorlik aloqalari tarixini yorituvchi mukammal asar yaratilgani yo'q.

Shu bois magistrlik dissertatsiyani tadqiq etishda vaqtli matbuotning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiq etilayotgan davrni o'rganishda «Xalq so'zi», «O'zbekiston ovozi», «Turkiston», «Ishonch», «Savdogar», «Andijonnoma», «Adolat», «Fidokor» kabi ro'znomalardan keng foydalanildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Internet halqaro tarmog'i rivojlanib bormoqda. Tarmoqdan mustaqillikning o'tgan davri mobaynida ikki davlat o'rtasidagi xukumatlararo o'zaro bordi, keldilar. Diplomatik aloqalar va tuzilgan o'zaro hamkorlik haqidagi mavzuga taalluqli ma'lumotlarni veb-manzillaridan olindi: [http: Frussian. People. com. cn](http://Frussian.People.com.cn); [http: ..times. Hankook. com](http://..times.Hankook.com); [http: ..metama. Com. Fkorea. news](http://..metama.Com.Fkorea.news); [http: ..www. Sanat. Onexca. Com](http://..www.Sanat.Onexca.Com); [nttp: ..2004. Press-uz](http://..2004.Press-uz); [http: ..www. gov. uz](http://..www.gov.uz); [http: ..www.mcds. ru](http://..www.mcds.ru).

¹ /иёсов Б. Ўзбекистон дипломатияси: Илк одимлар. «Гулистон» 1996 №4; Ўша муаллиф. Элчи ва элчихоналар. «Фан турмуш»: 1999. № 2; Саидова Л. Дипломатик ҳуқуқларни амалга оширишда давлат бошлиқининг ваколатлари. « Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари» 1999. № 3-4.; Ақромов Э. Роль финансово́й системы в развития экономики Япония. Бозор, пул ва кредит. 2004. № 4; Шодмонов Х. Японияда суд тизими. «Щаёт ва қонун». 2004; № 6; Қудратхўжаев Ш., Қирғизбоев А. Ўзбекистон-Япония: Ўзбек дипломатиясининг янги босқичи. Т.: 2002.

Tadqiqotning taxmin va tavsifi shundan guvohlik beradiki, vatanimiz tarixshunosligida mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Yaponiya bilan olib borgan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari tarixiga doir milliy mabuoat materiallari, yaratilgan mavzuga qisman bo‘lsada aloqador bo‘lgan asar va bukletlarni o‘rganib chiqib yaratilgan yaxlit, mukammal ilmiy tadqiqot hozircha yo‘q. Xuddi mana shu hol magistrantni mazkur mavzuni tarixiy tadqiqot obekti sifatida tanlab olishga undadi va shulardan kelib chiqib musatqil O‘zbekistonning Yaponiya davlati bilan olib borgan diplomatik aloqalari tarixini magistrlik dissertatsiyasining mavzusi qilib belgilab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. O‘zbekiston hukumatining sharq mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini o‘rganish, to‘plagan tajribani umumlashtirish hamda undan kelajakda foydalanish lozim bo‘lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat umumiy maqsad qo‘yildi.

Mazkur maqsadga erishish uchun esa quyidagi masalalarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

- O‘zbekistonning mustaqillikka erishganligi tufayli O‘zbekistonning Yaponiya davlati bilan manfaatli aloqalari masalasida ijobiy yutuqlarni O‘zbekistonning dunyo miqiyosidagi o‘rnini taxlil qilib berish;
- Ushbu davrda diplomatik va davlatlararo munosabatlarning o‘rnatilishi, agar joiz bo‘lsa, chuqurlashuvi masalalarini ko‘rsatish bu jarayonni rivojlantirishda bevosita davlatlararo iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik aloqalarining mustaxkamlash masalalarini yoritish;
- O‘zbekistonning sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalarini taxlil etish;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. YUqorida sanab o‘tilgan xolatlar hozirgi vaqtga qadar maxsus tadqiqot predmeti bo‘lgan emas edi. Muallif O‘zbekiston Respublikasining nafaqat xalqaro diplomatiyasida balki sharq

mamlakatlari bilan manfaatli aloqalari o'rganilgan jihatlarini ilmiy manbalar, arxiv materiallari, statistik, internet saytlaridagi ma'lumotlar asosida birinchi marta maxsus tarzda, chuqur taxlil qilib chiqishga harakat qiladi. Chunki, ayni mazkur dissertatsiya muallifi qalamga olgan masalalar birinchi bor maxsus kompleks tarzda tadqiq qilinmoqda.

1991-2017 yillar davrida mustaqil O'zbekiston Respublikasining Yaponiya davlatlari bilan manfaatli aloqalarning o'rnatilishi va rivojlanishining yo'llari va istiqbollari tadqiq qilinmoqda. Juda ko'p faktik ma'lumotlar ushbu ishda birinchi marotaba ilmiy istemolga olib kirilmoqda. Bu ma'lumotlar davlatimizning sharq davlatlari bilan bo'lgan o'zaro teng-manfaatli aloqalarida jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan diplomatik, ta'lim, madaniy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik masalalarini yoritib berdi. Shuning bilan birga O'zbekistonning bugungi kundagi dunyo hamjamiyatidagi munosib o'rnini ham ko'rsatib berdi. Ilgari e'lon qilingan boshqa ilmiy tadqiqotlardan farqli o'laroq ushbu ishda, O'zbekistonning sharq mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarining o'rnatilishi va rivojlanishi masalalariga shu kunning talablari nuqtai nazaridan tarixiy voqea va xodisalarga yangicha munosabatda bo'lish asosida yondashilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, 1991-2017 yillarda O'zbekiston bilan Yaponiya davlati o'rtasidagi diplomatik, davlatlararo munosabatlarning o'rnatilishi va rivojlanishi, ularning manfaatli aloqalarining tajribasini umumlashtirilganligi, shu asosdagi xulosalari, takliflari hamda ayrim amaliy tavsiyalari O'zbekistonning sharq mamlakatlari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun foydalanish imkoniyatini beradi. O'zbekistonning yangi tarixini kompleks tarzda o'rganishning muhim jabhalaridan biri bo'lib xisoblanadi. Dissertatsiyada ko'tarilgan masalalar Respublikamizning mustaqillikka erishgandan so'ng, qisqa vaqt davomida, ya'ni 1991-2017 yillardagi diplomatik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta'lim sohasidagi hayotini yaqqolroq tasavvur etishda juda qo'l kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

I.A.Karimov tomonidan qilingan sa'yi-xarakatlari samarasi jahon hamjamiyatida o'zbek xalqining munosib o'rnini bor ekanligini isbot qilib berdi. Tadqiqotda keltirilgan materiallar va manbalar O'zbekistonning yangi tarixini o'rganish, sharq mamlakatlarining Respublikamiz bilan diplomatik aloqalarni yoritib beruvchi ma'lumotlarni ijtimoiy fanlarda, maxsus kurslarni o'qitishda ma'lum amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Mavzuning manbalari. Mavzuda ko'rsatilgan masalalar echimini topishda ilmiy-tadqiqotda foydalanilgan xujjatlar va manbalarni quyidagi ko'rinishda tashkil qilishimiz mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Ushbu xujjatning 17-moddasi davlatimiz tashqi siyosatining tashqi siyosati prinsiplarini qamrab oladi.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qabul qilgan qonunlari, qarorlari, me'yoriy – huquqiy hujjatlari. Parlament tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati asosiy prinsiplari to'g'risidagi» konun¹ning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi normalari va prinsiplariga, «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunga, «Mudofaa to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining hamda Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining prinsiplari va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi.¹
3. Muxtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, nutqlari, xorijiy davlatlar rahbarlari bilan bo'lgan rasmiy, amaliy va davlat uchrashuvlar

¹ Ўзбекистон Республикаси қонунчилик асослари. Т., «Адолат», 2000. 644-б. «Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида»ги қонуни.

chog'ida so'zlagan nutqlarda davlatimiz siyosati yo'nalishlarini belgilab bergan.

4. Vaqtli matbuot materiallaridan. O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ko'rilayotgan davrdagi diplomatik, iqtisodiy ilmiy-texnikaviy, madaniy va ta'lim sohasidagi manfaatli aloqalariga doir ma'lumotlaridan foydalanildi.

Ushbu xujjatlarning eng qimmatli tomoni shundaki, unda O'zbekiston va Yaponiya davlati bilan diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va ta'lim sohasidagi aloqalari maxsus tarzda ijtimoiy hayotning boshqa jabhalari bilan bevosita aloqador va shu bilan birga mustaqil shaklda bayon etilgan.

I.bob- Mustaqil O‘zbekistonning Yaponiya davlati bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi.

I.1. O‘zbekiston tashqi siyosatining o‘ziga xos jihatlari.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach uning oldida milliy manfaatlariga mos keladigan mustaqil tashqi siyosiy yo‘lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi dolzarb vazifalar kundalang bo‘lib turadi.

Mustabid sovet totalitar tuzumi O‘zbekiston Respublikasini o‘zining ehtiyojlari uchun zarur xom ashyo etkazib beruvchi o‘lkaga aylantirgan edi. Yakka xokimlik tuzumi xukmronlik qilgan bir sharoitda O‘zbekiston jahonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatidan, xalqaro aloqalarini o‘zaro manfaatdorlik asosida bevosita olib borish xuquqidan mahrum qilindi.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Abduganievich Karimov ta’kidlaganidek, «O‘zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish davlat faoliyatining yangi va amalda qo‘llanilmagan yo‘nalishlaridan biridir. Yakkaxokimlik tizimi sharoitida O‘zbekiston xalqaro maydonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo‘lib, o‘zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, etarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi».¹

Tashqi ishlar va diplomatik soha O‘rta Osiyo mintaqasi mahalliy millatlari shu jumladan, o‘zbek millati, eng kamsitilgan tarmoqlaridan biri edi. Sobiq SSSR tashqi ishlar vazirligi tizimida rasmiy ravishda ishlaydiganlarning to‘qson ikki foizi bir millatning vakillari edi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘nggi qirq besh yil ichida (1945-1990) O‘zbekistonning faqat etti vakili SSSRning chet eldagi favqulotda va muxtor elchisi bo‘lib ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. (A.Abdullaev, Baxodir Abduraxmonov, Sarvar Azimov, Latif Maqsudov, Nuriddin Muxiddinov, Rafiq Nishonov va Anvar Qo‘chqarov). Shundan faqat uchasi

¹ Каримова И.А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. Т., Ўзбекистон 1996.50-Б

(A.Abdullaev, Boxodir Abdurazzoqov va Latif Maqsudov) maxsus diplomatik oliy ma'lumotga ega edilar xolos. O'rta Osiyo Respublikalari jumladan O'zbekiston vakillari jahonning etakchi davlatlariga ma'sul lavozimlariga belgilanganmas ularni odatda «o'rtacha» davlatlarga ishga belgilar edilar (Somali, Pokiston, Livan, Shri-Lanka, Gabon, Suriya va boshqalar). Oqibatda o'zbek millatining farzandlari xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi yo'nalishlaridan chetlatilgan edilar.¹ Xolbuki ular jiddiy ahamiyatga ega qator takliflarni kutib, tashqi ishlar va munosabatlarda asosli va mustaqil fikrlarni olg'a surganlar.

Mustaqillik O'zbekiston qaramlik va kemptiklik xissidan ozod etdi. O'zbekiston diplomatlari keng miqyosda xalqaro maydonga chikmoqdalar.

Yaqin o'tmishda chor Rossiyasining so'ngra «Ittifoq»ning xom ashyo bazasi bo'lib kelgan O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardanoq jahonga, jahon esa O'zbekistonga yuz tuta boshladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini jahonda eng rivojlangan davlatlar tan olib, biz bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar o'rnatdilar.

Zero, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash uchun barcha shart-sharoitlar mavjuddir. Respublikamizning moddiy boyliklari, tabiatining noyob imkoniyatlari hamda eng asosiysi xalqimizning mehnatkashligi va chuqur tarixiy ildizlari ega bo'lgan ma'naviy salohiyati va yana bitta muhim faktlar O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan siyosatning jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tirof etilganligi buning kafolatidir. Bu kabi tarixiy omillar mustaqillikni qo'lga kiritgan. Boshqa yosh mustaqil davlatlarga nisbatan O'zbekistonning jahon iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga tezroq kirib borishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xukumati Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan tashqi siyosat, har qanday zo'ravonliklar, tayziqlar va salbiy xurujlarni bartaraf etish omillari, xalqaro munosabatlarda har qanday

¹ Хошимов С.А. Ўзбекистон ташқи сиёсатининг асосий қоидалари. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: Тарих ва ҳозирги замон (илмий-амалий анжуман) Т: 2003

muammoni aql-idrok va diplomatik yo‘l bilan xalqaro siyosati jahondagi barcha rivojlangan davlatlarning biz bilan har tamonlama hamkorlik qilishlariga yo‘l ochib bermokda.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash, o‘zaro hamkorlik va birodarlikni chuqurlashtirishga xarakat qilmokda. Shu boisdan ham O‘rta Osiyo va Evropa qit’alari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchilik, g‘arbu sharq o‘rtasidagi ko‘priknı bog‘lab turuvchilik vazifasini o‘tay oladigan yagona davlat bo‘lib maydonga chiqdi.

Gap shundaki, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov dunyo muammolarini hal qilishning eng insonparvar, eng adolatparvar tamoyillarini o‘rtaga tashlagan etuk davlat rahbari sifatida dunyoga tanildi. U butun insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan ulkan muammo- xalqaro terrorizm va narkobiznes, aqidaparaslik va diniy ekstrimizmga qarshi kurash masalalarida muhim va oqilona takliflar bilan jahon miqyosida katta obro‘ qozondi. Harbiy siyosiy, ijtimoiy tangliklarni maxalliy va xalqaro o‘choqlarini «qaynoq» nuqtalaridagi nobarqaror vaziyatni tinch yo‘l bilan muzokaralar vositasi orqali hal etish xaqidagi aniq va ravshan fikrlari xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixida qolishiga ishochimiz komildir.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov afg‘on mojarosini tinch yo‘l bilan xalqaro siyosiy, Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish masalasini 1992 yildan e’tiboran qayta-qayta nufuzli xalqaro minbarlarda, xususan BMT, EXXT va boshqa sammitlar kun tartibiga olib chiqqani¹ buning yorqin misolidir.

Ayniqsa, so‘nggi bir necha yillar davomida terrorizmga qarshi birgalikda kurashish, Afg‘onistondagi murakkab vaziyat xususida O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov xalqaro hamjamiyatga tinmay murojat qilib kelgan edi. Afsuski, 2001 yil 11 sentyabrda Vashington va Nyu-Yorkdagi terroristik tajovuzkordan so‘nggicha global masalalardan biri bo‘lgan xalqaro terrorizmga qarshi kurashish bir yoki bir necha mamlakatning ishi emasligi xalqaro miqyosida tan olindi.

¹ Каримов И.А. Тинчлик учун курашмок керак. Т.: Ўзбекистон. 2001. Б-38.

Hayot ko'rsatganidek, yangi ming yillik masalalarini ikki toifaga, global, ya'ni umumbashariy va muhim regional muammolarga bo'lishni talab qilmoqda. I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida hamda nufuzli xalqaro davlat rahbarlarining oliy darajadagi turli kengashlarda so'zlagan nutqlarida jahon hamjamiyati e'tiborini bu masalaga tortgan edi.

Xukumatimiz o'zining tashqi siyosatida mana shu ko'rsatmalarga amal qilmoqda. Davlatimiz biron-bir buyuk davlat ta'siri doirasiga tushub qolmasligi, xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, majoralarni tinch yo'l bilan xal etish, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar tashqi siyosatda ochiq-oydinlik, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish hamda xalqaro xuquqning umume'tirof etilgan qoidalarni va mezonlariga asoslanib ish yuritish orqali jaxon xamjamiyatida obro' qozonmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni yumshatish, har bir mintaqalarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ko'ra bilish, xavf-xatarlardan ogoh bo'lish, ularni o'z vaqtida o'rganish va zarur xulosalarga kelish, shu asosida umumbashariy muammolarni tinchlik bilan xal etish yo'llarini ko'rsatib berdi. Shunday qilib, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida ko'plab xalqaro konvensiyalarga va BMT, EXXT, XMT kabilarning protokollariga qo'shibgina qolmay, balki jahonning ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlari bilan o'zaro do'stlik munosabatlarini o'rnatishga erishildi. Bu aloqalar shunchaki ma'lum muddatga tuzilgan. Xamkorlik bo'lmay, o'zaro ishonch asosiga qurilgan uzoq muddatli strategik xamkorlikdir.

Ma'lumki, 2002 yil mart oyida O'zbekiston AQSHni startegik xamkor deb e'lon qilingan bo'lsa, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Yaponiya xukumati taklifiga binoan 2002 yilning 28-31 iyul kunlari Yaponiyaga tashrifi chog'ida har ikki mamlakat o'rtasida uzoq muddatga mo'ljallangan strategik xamkorlik xaqidagi bitimga imzo chekdi. Olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bu

voqea tufayli mamlakatimiz rasman ham g'arb, ham Sharqning eng qudratli davlatlari bilan strategik ikki tomonlama foydali munosabatlar o'rnatishga erishdi.

Gap shundaki, Yaponiya yuqori darajada rivojlangan industrial mamlakat bo'lib, uning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari 1950 yillardan boshlab, boshqa rivojlangan davlatlar o'rtasida yuqori o'rinni egallagani bilan keskin ajralib bordi. Hozirgi kunda Yaponiya fan-texnika taraqqiyoti, jahon siyosatida tutgan o'rni, dunyo rivojlanishidagi mavqei, ishlab chiqarish imkoniyatlari va mehnat resurslari jihatidan allaqachon yuksak darajaga etgan qudratli davlat sifatida jahonga tanildi.

Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin boshlangan iqtisodiy va siyosiy krizislardan tezda chiqib ketishi Yaponiya xukumati olib borgan ichki va tashqi siyosat to'g'ri yo'lga qo'yilgani bilan chambarchas bog'liq edi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, amalda qo'llanib kelayotgan va hozirgi kunda dunyo xamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modeli chin ma'noda yapon milliy mafkurasiga aylangani, davlat o'z siyosatida xalqqa, ayniqsa, o'sayotgan yosh avlodga, otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatish asosiga qo'yilgani bu mamlakatning o'ziga xos taraqqiyoti garovi bo'ldi.

Fuqarolar davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlarga xurmat bilan qarabgina qolmay, balki unga so'zsiz amal qilishi har bir fuqaroning o'z burchiga sadoqat, fidoyilik, vatanparvarlik, sadoqat ruhi, umumbashariylik, modernizatsiya kabi g'oya va ma'naviy natijalarga poydevor bo'ldi, deb o'ylaymiz.

Shunday ekan, kunchiqar mamlakat deb jahonda nom taratgan Yaponiya bosib o'tgan tarixiy yo'lni, Yaponiya-O'zbekiston munosabatlarini shu kun talablari asosida O'zbekistonning biz yuqorida qayd etgan tashqi siyosatdagi tutgan pozitsiyasi muhim o'rin egallaydi.

I.2. Yaponiya bilan o‘zaro hamkorlik va elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘yilishi.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyoning barcha mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini rivojlantirib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘zining «O‘zbekiston XXI asr bo‘sasida: havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida O‘zbekiston barcha taraqqiyparvar davlatlar bilan mafkurasidan qat’iy nazar, o‘zaro teng manfaatli hamkorlik o‘rnatishga tayyor ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Shu boisdan ham qisqa vaqt ichida dunyoning ko‘plab mamlakatlari bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalardagi aloqalar o‘rnatishga erishdik.¹ Jumladan, Yaponiya O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo‘lib, 1991 yil 28 dekabrdayoq tan olgan edi. Ko‘p o‘tmay, 1992 yilning boshidan ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.² Bu bejiz emas. Bizlar qadimiy Buyuk ipak yo‘li orqali bog‘langan xalqlarmiz. Jumladan, kattaga xurmat, kichikka izzat, oilaga sadoqat, saramjon-sarishtalik, hulas, barcha sharqona urf-odatlarimiz bir-biriga yaqin. Shuning uchun ham Yaponiya xalqi O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lishidan manfaatdor ekanligiga shubxamiz yo‘k. Demak mustaqillikning ilk kunlaridan Yaponiya bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga quydik.

1992 yil 26 yanvar Yaponiya davlatining O‘zbekistonning Toshkent shahrida elchixonasi ochildi.³ 1993 yil 7 iyun Yaponiyaning O‘zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi Ukeru Magasaka O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga ishonch yorligi topshirildi.⁴

1993 yil 13 dekabr O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Yuji Kiekava boshchiligidagi Yaponiya tashqi savdo va sanoat vazirligi vakillari

¹ Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистон янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т.: Шарқ 2000. Б-496.

² Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома. Т.: Шарқ 2000 Б-379.

³ «Халқ сўзи» 1992 йил 27 январь.

⁴ «Халқ сўзи» 1993 йил 9 июнь

hamda yapon ishbilarmonlarini qabul qildi. O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida iqtisodiyot, sanoat, er osti boyliklarini tadqiq qilish, mutaxassislar tayyorlash va ayrboshlash kabi ko'pgina sohalarda hamkorlikni rivojlantirish masalalari muxokama qilindi.¹

1994 yil 3 mayda Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi Ukeru Magasakini qabul qildi. Elchi Yaponiyaning yangi tuzilgan hukumati bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni kelgusida ham barqaror va samarali davom ettirish tarafdori ekanini aytib o'tdi.²

1994 yil 16 may kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov Yaponiya davlatiga rasmiy tashrifi bilan uchib ketdi. Shu kuni mehmonni rasmiy kutib olish marosimidan so'ng O'zbekiston rahbari Yaponiyaning «Mitsui» kompaniyasining Prezidenti N.Kumagaini, Yaponiya savdo va sanoat vaziri E.Xatana va moliya vaziri X.Fudziini qabul qildi. 17 may I.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash bilan aloqani kuchaytirish buyicha maxsus qo'mita tuzishga axd qilgan yapon parlamenti tashabbuskor guruhi a'zolari bilan uchrashdi. Shu kuni Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiya bosh vaziri Sutamu Xata bilan muzokara yuritdi. Ikki o'rtada davlatlararo munosabatlar asoslariga doir ko'shma bayonot imzolandi. Tomonlar fan va texnologiya, madaniyat, ta'lim, turizm kabi sohalarda aloqalarni yanada rivojlantirishga kelishib olindi. Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri S.Saidkosimov va Yaponiya tashqi ishlar vaziri K.Kakidzava ikki mamlakat munosabatlari haqidagi xujjatlarga imzo chekildi. 18 may «Keydan ren» iqtisodiy tashkilotlari federatsiyasi shtab kvartirasida ishbilarmonlar bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti uchrashdi. 19 may tashrif nihoyasiga etdi.

1. O'zbekiston Respublikasi bilan Yaponiya o'rtasida munosabatlarning asosiy prinsipi to'g'risida ko'shma bayonot imzolandi.

¹ «Халқ сўзи» 1993 йил 14 декабрь.

² «Туркистон» 1994 йил 4 май.

2. O‘zbekiston Respublikasi bilan Yaponiya o‘rtasida tashqi ishlar bo‘yicha munosabatlar bo‘yicha Bitim imzolandi.

Safar chog‘ida Birinchi Prezident I.Karimov «Panasonik» konsernida bo‘ldi va uning rahbariyati bilan O‘zbekistonda filial ochishga kelishib olindi. Respublikamiz shaharlarida «Panasonik» mahsulotlarini sotish yo‘lga qo‘yildi. Yaponiya xukumati O‘zbekistonga 100 million AQSH dollari hajmida beg‘araz yordam berdi.¹

1994 yil 22 iyunda Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiyaning O‘zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi Ukeru Magasanining uning iltimosiga ko‘ra qabul qildi. Elchi Prezidentga Yaponiya Bosh vaziri Sutomu Xatananing shaxsiy maktubini topshirdi. Suhbat o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha suhbatlashib olindi.²

1995 yil 7 iyul kuni Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiya tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Xiroshi Fukudani qabul qildi. Muloqot chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalalari ko‘rildi.³

1995 yil 28 sentyabrda I.Karimov Yaponiya parlamentining O‘zbekiston va Yaponiya do‘stlik uyushmasi raisi X.Kumagai boshchiligidagi delegatsiyani va Yaponiya do‘stlik uyushmasi raisi X.Kumagai boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.⁴

1996 yil 2 oktyabr Yaponiyaning O‘zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi Kaoichi Obato O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovga ishonch yorligini topshirdi.⁵

1996 yil 20 dekabr Tokioda (Yaponiya) O‘zbekiston elchixonasining tantanali ochilish marosimi bo‘ldi.⁶

¹ «Ўзбекистон овози», 1994 йил 21 май.

² «Ўзбекистон овози», 1994 йил 23 июнь.

³ «Тошкент оқшоми», 1995 йил 10 июль.

⁴ «Ўзбекистон овози», 1995 йил 30 сентябрь.

⁵ «Ўзбекистон овози», 1996 йил 3 октябрь.

⁶ «Туркистон», 1996 йил 21 декабрь.

1999 yil 4 may Yaponiya tashqi ishlar vazirligi Masaxiko Kokomura rahbarligida delegatsiyani O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov qabul qildi. Uchrashuvda ikki tomonlama aloqalarning hozirgi ahvoli hamda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog'lik masalalar bo'yicha fikrlar almashindi. Shu kuni mehmon O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O'.Sultonov bilan uchrashdi. Delegatsiya O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligiga ham tashrif buyurdi.¹

1999 25 noyabrda O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri A.Komilov, tashqi iqtisodiy aloqalar vaziri E.G'aniev, moliya vaziri R.Azizov, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri S.G'ulomovdan iborat Yaponiyaga kelgan delegatsiya O'zbekiston Respublikasining yapon hukumati a'zolari, vazirlik va idora rahbarlari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdilar. Tashrif yakunida ikki davlat tashqi ishlar vazirligi o'rtasida maslaxatlashuvlar o'tkazish bo'yicha qo'shma hujjatlar imzolandi.²

2000 yil sentyabr Vazirlar Mahkamasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Oqsaroyda Yaponiya parlamenti vakillarining deputati M.Sutzukini qabul qildi. Suhbatda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning hozirgi holati va istiqbollari mamlakatimiz qonun chiqaruvchi organlari o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish to'g'risidagi fikr almashildi.³

2000 yil sentyabrda Vazirlar Maxkamasida O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining o'rinbosari X.Karamatov va Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi K.Nakayama o'rtasida hukumatlararo almashinuv notalari imzolandi. Hujjatga ko'ra Yaponiya hukumati O'zbekiston Respublikasi Davlat amaliy san'at muzeyini audio vizual texnika bilan jihozlash uchun 46 million ien (40 ming AQSH dollariga yaqin) ajratdi.⁴

¹ «Ўзбекистон овози», 1999 йил 27 май.

² «Халқ сўзи», 1999 йил 27 май.

³ «Халқ сўзи», 2000 йил 22 июль.

⁴ «Фидокор», 2000 йил 6 сентябрь.

2000 yil 6 oktyabrda Yaponiya Moliya vazirligi siysiy tadqiqotlar institutining Prezidenti X.Vatanabe boshchiligidagi institut delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, Moliya vaziri Azimov bilan ham bo'lib o'tdi.¹

2001 yil 28 avgust Yaponiya parlamentining vakillar palatasi deputati Sutomu Xatanini Birinchi Prezidentimiz qabul qildi. Suhbatda ikki davlat o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi.²

Yaponiya parlamenti Osiyo qit'asidagi birinchi qonun chiqaruvchi xalq vakillik organi hisoblanadi. 2005 29 noyabr kuni mamlakatda birinchi saylovlar bo'lib o'tganiga 115 yil to'ladi. Kunchiqar mamlakat parlamenti palatadan iborat bo'lib:

- Vakillik palatasi – 500 ta deputat saylanadi.
- Maslaxatchilar palatasi -252 ta deputat saylanadi.

Vazirlik palatasiga deputatlar to'rt yilga saylanadi.

Parlament tarkatib yuborilsa qayta saylovlar o'tkazish mumkin. Ushbu palataning 300 nafar a'zosi bir mandatli okruglardan, qolganlari esa munosib ravishda, ya'ni partiya ro'yxati asosida saylanadilar.

Maslaxatlar palatasi deputatlari vakolati 6 yil.

A'zolarining yarmi har 3 yilda qayta saylanadi. Ularning 100 nafari umummilliy okruglardan, qolgan 152 ta a'zosi esa 47 prefekturalardan saylanadi. Har palata sessiyalari navbatma navbat, favqulodda yoki maxsus o'tkazish mumkin. Navbatdagi sessiya yilda bir marta chaqirilib, 150 kun davom etadi. Bunda muhim qonun loyihalari hamda byudjet ko'rib chikildi. Vazirlar Maxkamasi tomonidan tayyorlanib, parlamentga taqdim etilgan byudjet loyihasini vakillik palatasi birinchi bo'lib, ko'rib chiqish huquhiga ega. 25 yoshga to'lgan Yaponiya fuqarolari vakillik palatasiga 30 yoshga etganda esa maslaxatchilar palatasiga

¹ «Халқ сўзи», 2000 йил 7 октябрь.

² «Халқ сўзи», 2001 йил 29 августъ.

saylanish huquqiga ega. 20 yoshga etgan mamlakat fuqarolari saylovlarda qatnashish huquqiga ega.

Yaponiyada dastlabki siyosiy partiya – Aykoku Koto (vatanparvarlar jamiyati) 1874 yilda tashkil etilgan. Ulardan keyin ikkinchi jahon urishidan keyin mamlakat siyosiy olamiga yangi partiyalar kirib keldi. Demak:

1. Vatanparvarlar jamiyati partiyasi.
2. Liberalar partiyasi.
3. Demakratlar partiyasi.
4. Sotsialistlar partiyasi.
5. Kommunistlar partiyasi.

1955 yilda ikkita konservativ partiya birlashdi - liberallar va demakkratlar partiyasi (LDP) . 1993 yilda Yaponiya sotsialistik partiyasi (YASP) vujudga keldi. Hozirgi kunda ana shu ikki partiya parlament uchun kurash olib boradi.¹

2001 yil 12 noyabrda Oksaroyda Yaponiya parlamentining vakillar palatasi deputati N.Nakayamani O‘zbekiston rahbari qabul kildi. Tashrif davomida Yaponiyalik mehmon O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi raisi E.Xaliov bilan uchrashdi.

Suhbatda ikki davlat o‘rtasida parlamentlararo munosabatlarini kengaytirish hususida fikr almashildi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligida ham muzokaralar o‘tkazildi.²

O‘zbekistonda Yaponiyaning dunyoga mashhur «Mitsui», «Mitsubitsi», «Sumitoto», «Tomen», «Marubeni», «Nishe Ivai» korporatsiyalarning domiy vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmokda. Ular bilan O‘zbekiston tashqi iqtisodiy vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlarni amaliy holatlarini ko‘rishimiz mumkin. Yaponiya xukumati o‘nlab firma va kompaniyalari Ko‘kdumaloq, SHo‘rtan ne’ft – gaz kondensati qonuni o‘zlashtirishda Buxoroda ne’ftni qayta

¹ «Халқ сўзи», 2004 йил 9 ноябрь, № 231.

² «Халқ сўзи», 2001 йил 13 ноябрь.

ishlash zavodini qurishda, Farg‘ona ne‘ftni qayta ishlash zavodini ta‘mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta‘mirlashda o‘z samoyalari bilan qatnashmoqda.

2002 yil 28-31 iyul kunlari O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Yaponiya xukumatining taklifiga binoan rasmiy tashrifi bilan Yaoniyaga jo‘nab ketdi. 29 iyul kuni Tokio shahrida Yaponiya hukumatining bosh vaziri Djoyun‘itiro Koidzumi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov bilan uchrashdi.¹

Suhbat chog‘ida ikki tomonlama munosabatlar, Markaziy Osiyoda havfsizlikni ta‘minlash masalasi xahida suhbatlashdilar. Natijada quyidagi xujjatlari imzolandi.

- Do‘stlik munosabatlari haqida xujjat.
- Ikki davlat o‘rtasida hamkorlik;
- Hamdo‘stlik munosabatlari xaqida hujjat, iqtisodiy hamkorlik xaqida hujjat imzolandi.

Yaponiya hukumati xalqaro maydonda, jumladan. Markaziy Osiyoda O‘zbekiston muhim hamkorlik davlatlardan biri ekanligini har tomonlama qullab-quvvatlash, xalqaro terrorizmga qarshi qurishda birgalikda hamkorlik qilish, tinchlikni mustaxkamlash va hududda barqarorlikni mustaxkamlash tarafdori ekanligini ta‘kidladi. Hujjatda savdo, investitsiyasi, texnologiya va ta‘lim sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikni kelajakda keng rivojlantirish masalalari ham ko‘rib o‘tildi.

Bundan tashqari hujjatda ikki davlatning tashqi ishlari vazirligi hamda O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi bilan «Mitsubisi», «Mitsui», «Morubeni», «Nishe Ivvai» hamda O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy Milliy banki va «Bank of Tokyo-Mitsubisi» tomonidan imtiyozli kredit ajratish, «O‘zbekistonimiz» milliy kompaniyamiz va Yaponiya turizm agentligi bilan hamkorlikdagi masalalari kelishildi va hujjatlarga imzo chekildi.

¹ «Халқ сўзи», 2002 йил 1 августъ.

O'zbekiston va Yaponiya davlati o'rtasida bugungi kunga kelib 14 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov va Yaponiya imperatori Akitito uchrashuv chog'ida ikki davlat kelajakda ham o'z munosabatlarini manfaatdor ekanligini ta'kidlab o'tishdi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Yaponiyaning Tokio «Imperial» mehmonxonasidagi rezidensiyasida Yaponiya tashqi ishlar vaziri Yorikov Kavaguchi xonim, moliya vaziri Masaxura SHiokava Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (J I C A) Prezidenti Takao Kavakami, Yaponiya xalqaro hamkorlik banki Prezidenti Kyosuki SHinozava (J I V I C) larni qabul qildi. 30 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov Yaponiya eng mashhur Oliy o'kuv yurtidagi – Vaseda universitetiga tashrif buyurdi. Universitet rektori Akushiva Takyasu ikki davlat o'rtasida munosabatlarni rivojlantirish va mustaxkamlash yo'lidagi xizmati, O'zbekistonda olib borilayotgan kadrlar tayyorlash milliy dasturi nafaqat bu mamlakatda balki xalqaro miqyosida ham katta ahamiyatga ega ekanligini takidladi.

Vaseda universiteti milliy kengashining qaroriga binoan I. Karimovga Vaseda universiteti faxriy doktori unvoni berildi. I. Karimov uchrashuvdan so'ng Yaponiyada ta'lim olayotgan O'zbekistonlik talabalar bilan suhbatlashdi. Yaponiya davlati Oliy o'kuv yurtida bugungi kunga kelib 70 nafar ortik talaba O'zbekistondan kelib bilim olmoqda. Shu kuni O'zbekiston va Yaponiya xukumatlari o'rtasida 348 million AQSH dollari miqdorida grant imzolandi. Bu xujjat asosida O'zbekistonning 20 nafar o'g'il-qizlari Yaponiyada ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Yaponiya bilan 2002 yilda strategik sheriklik munosabatlari o'rnatildi. Bu davlat mamlakatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohatlar jarayonini izchil qo'llab quvvatlab kelmokda.

Yaponiya O'zbekiston uchun beg'araz insonparvarlik yordami doirasida 131 million AQSH dollari ajratdi.

2004 yil 25 avgust kuni Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi Akio Kavatoning diplomatik misiyasi yakunlanganligi munosabati bilan Tashqi ishlar vazirligida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi S. Safoev Yapon diplomati o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatda o'zbek – yapon munosabatlari erishilgan hamkorlik darajasiga yuqori baho berilib, tomonlar ularni kelgusida ham izchil rivojlantirish borasida fikr almashildi. Yapon diplomatik missiyasining rahbari Akio Kavatoning Toshkentdagi faoliyati davrida o'zbek-yapon munosabatlarida turli sohalarda rivojlanish suratida sezilarli o'sishga erishganligi qoniqish bilan ta'kidlandi.

Tashqi ishlar vaziri S. Safoev Yaponiya elchisiga ikki davlat o'rtasida turli sohalarda aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan ulkan xissasi uchun O'zbekiston Birinchi Prezidenti I. Karimov nomidan minnatdorchilik bildirildi.

Undan tashqari Akio Kavato o'zbek tomoniga samarali hamkorlik uchun minnatdorchilin izox etdi.¹

2009 yil 25 may kuni Yaponiyaning O'zbekistondagi favqulotda va muxtor elchisi Akio Kavatoning diplomatik misiyasi yakunlanganligi munosabati bilan Tashqi ishlar vazirligida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi A. Komilov Yapon diplomati o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatda o'zbek – yapon munosabatlari erishilgan hamkorlik darajasiga yuqori baho berilib, tomonlar ularni kelgusida ham izchil rivojlantirish borasida fikr almashildi. Yapon diplomatik missiyasining rahbari Akio Kavatoning Toshkentdagi faoliyati davrida o'zbek-yapon munosabatlarida turli sohalarda rivojlanish suratida sezilarli o'sishga erishganligi qoniqish bilan ta'kidlandi.

2012 yil 28-31 iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov Yaponiya xukumatining taklifiga binoan rasmiy tashrifi bilan Yaponiyaga jo'nab ketdi. 29 iyul kuni Tokio shahrida Yaponiya hukumatining bosh vaziri

¹ «Халқ сўзи» 2004 йил 27 август, № 179-180

Djyun'itiro Koidzumi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov bilan uchrashdi.¹

Suhbat chog'ida ikki tomonlama munosabatlar, Markaziy Osiyoda havfsizlikni ta'minlash masalasi xahida suhbatlashdilar.

havfsizlikni ta'minlash masalasi xahida suhbatlashdilar.

Natijada quyidagi xujjatlari imzolandi.

- Do'stlik munosabatlari haqida xujjat.

- Ikki davlat o'rtasida hamkorlik;

-Hamdo'stlik munosabatlari xaqida hujjat, iqtisodiy hamkorlik xaqida hujjat imzolandi.

Yaponiya hukumati xalqaro maydonda, jumladan. Markaziy Osiyoda O'zbekiston muhim hamkorlik davlatlardan biri ekanligini har tolmonlama qullab-quvvatlash, xalqaro terrorizmga qarshi qurishda birgalikda hamkorlik qilish, tinchlikni mustaxkamlash va hududda barqarorlikni mustaxkamlash tarafdori ekanligini ta'kidladi. Hujjatda savdo, investitsiyasi, texnologiya va ta'lim sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikni kelajakda keng rivojlantirish masalalari ham ko'rib o'tildi.

Xullas mustaqillik yillarida uzoq sharqda katta qudratga ega bo'lgan Yaponiya davlati bilan O'zbekiston o'zining diplomatik aloqalarini o'rnatdi va uni rivojlantirib bormoqda.

¹ «Халқ сўзи», 2012 йил 1 августъ.

II-bob. O‘zbekiston - Yaponiya iqtisodiy va madaniy hamkorlik aloqalari.

II.1. Ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy sohadagi hamkorlik.

1992 yil 26 oktyabrda Yaponiya moliya vazirining xalqaro ishlar bo‘yicha muovini Tadao CHinoni O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti qabul qildi. Uchrashuvda iqtisodiy hamkorlik masalalari yuzasidan fikrlar almashildi.¹

1996 yil 15 fevral kuni Yaponiya tashqi ishlari vaziri, iqtisodiy hamkorlik boshqarmasi bosh direktori o‘rinbosari Xideaki Ueda delegatsiyasini qabul qildi. 13 fevraldan 16 fevralgacha X.Ueda boshchiligidagi delegatsiya O‘zbekiston vazirliklari, idoralarining vakillari bilan iqtisodiyot va moliya masalalari, respublikaga texnik yordam ko‘rsatish muammasi yuzasidan ko‘pdan-ko‘p muzokaralar va bafurja maslahatlar bo‘lib o‘tdi.²

1993 yil 9 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Mutalov Yaponiya tashqi savdo va sanoat vazirligi vakillari hamda yapon ishbilarmonlaridan iborat delegatsiyani qabul qildi. Suhbatda o‘zbek-yapon iqtisodiy qo‘shma komissiyasini tuzishga kelishib olindi.³

1994 yil 4 avgust kuni Birinchi Prezident I.Karimov o‘zbek-yapon iqtisodiy hamkorligi komiteti raisi, «Mitsui» kompaniyasi Prezidenti Naaxiko Kumagai boshchiligidagi yapon delegatsiyasini qabul qildi. Suhbat O‘zbekiston va «Mitsui» kompaniyasi o‘rtasidagi hamkorlik masalalarini muxokama qildi.⁴

1994 yil 20 oktyabri Mokoto Kurada boshchiligidagi Yaponiyaning «Mitsubitsi korporeyshin» kompaniyasi delegatsiyasini I.Karimov qabul qildi. Uchrashuvda Yaponiyalik ishbilarmonlarni O‘zbekiston bilan hamkorlik qilish, jumladan, ushbu kompaniya bilan hamkorlik masalalari ko‘rib chiqildi.⁵

¹ «Туркистон» 1992 йил 27 октябрь.

² «Халқ сўзи», 1993 йил 16 февраль.

³ «Ўзбекистон овози», 1993 йил 10 июнь.

⁴ «Ишонч», 1994 йил 5 август.

⁵ «Халқ сўзи», 1994 йил 21 октябрь.

1994 yil 17 noyabrda Birinchi Prezidentimiz Yaponiyaning «Sumitomo» korporatsiyasi boshqaruvi direktori Tatsuo Nishida boshchiligidagi ishbilarmonlar delegatsiyasini qabul qildi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari O'.Sultonov bilan delegatsiya uchrashdi. Hamkorlikka oid masalalar muxokama etildi.¹

1995 yil 15 mayda Birinchi Prezidentimiz Yaponiya Moliya vazirligining moliya-pul siyosati institutining Prezidenti Eysuke Sakanibara boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Muloqot chog'ida Yaponiya tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoyalarni oshirish imkoniyatlari va boshka masalalar ko'rib chiqildi.²

1995 yil 5 iyunda Birinchi Prezidentimiz Yaponiyaning «Mitsubitsi korporeyshn» kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Sinroku Maroxani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Suhbatda «Mitsubitsi korporyshn» bilan tog'-kon, neft va gaz sanoati, savdo-iqtisodiy hamda moliya sohasidagi hamkorlik qilish bilan bog'lik masalalar muxokama etildi.³

1995 yil 13 iyunda Yaponiyaning xorijiy iqtisodiy hamkorlik jamg'armasi Prezidenti Akira Nshigaki boshchiligidagi delegatsiyani Birinchi Prezident I.Karimov qabul qildi. Muloqotda transport, sayyohlik va qishloq ho'jalik sohalarida uzoq muddatli aloqalar o'rnatish haqida fikrlashib olindi.⁴

1995 yil 14 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasida Bosh vazir o'rinbosari B.Xamidov va O'.Sultonov, A.Nishigaki boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi. Uchrashuv yakunida O'zbekistonga telekommunikatsiyalar tarmog'ini rivojlantirish uchun 14 million dollar miqdorida kredit ajratish to'g'risida Bitim imzolandi.⁵

1995 yil 12 sentyabr kuni Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiya - O'zbekiston iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'mitasi raisi «Mitsui» kompaniyasi

¹ «Туркистон», 1994 йил 18 ноябрь.

² «Халқ сўзи», 1995 йил 16 май.

³ «Халқ сўзи», 1995 йил 6 июнь.

⁴ «Ўзбекистон овози», 1995 йил 14 июнь.

⁵ «Халқ сўзи», 1995 йил 15 июнь.

Prezidenti Naoxiko Komagai boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Suhbatda hamkorlik masalalari hamda axborot almashuv sohasini yaxshilash masalasi muxokama etildi.¹

1995 yil 25 noyabrda Yaponiyaga tashrif buyurgan tashqi ishlar vaziri, iqtisodiy aloqalar, moliya, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirlaridan iborat bo'lgan guruh O'zbekiston telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish va Samarkand, Buxoro, Urganch aeroportlarini ta'mirlash bo'yicha loyihalarni moliyaviy ta'mirlash to'g'risidagi notalar almashildi. Shuningdek, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasiga Yaponiya avia yuk tashish bozorida qatnashish huhuhini beruvchi Bosh agentlik Bitimi imzolandi.²

1996 yil 31 may kuni Yaponiyaning qishloq ho'jaligi, o'rmon va baliqchilik bo'yicha Moliya korporatsiyasi raisi o'rinbosari Tadao Tadachino boshchiligidagi delegatsiya Birinchi Prezident I.Karimov bilan uchrashdi. Suhbatda hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chikildi. Shu kuni delegatsiyani O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O'.Sultonov qabul qildi.³

1996 yil 3 iyun kuni Yaponiyaning «Marubeni» korporatsiyasi Prezidenti Ivao Toruimi boshchiligidagi delegatsiya Birinchi Prezident I.Karimov bilan uchrashdi. Suhbatda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi loyihasin bo'yicha hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlar muxokama qilindi. Shuningdek, gaz, tog'-kon, engil sanoat va transport sohalaridagi hamkorlik bilan bog'lik masalalar muxokama etildi. Shu kuni mehmonlar va O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O'.Sultonov bilan uchrashdi.⁴

1996 yil 14 iyunda Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiyaning xorijiy iqtisodiy, hamkorlik jamg'armasi vitse Prezidenti M.Kubotani qabul qildi. Shu kuni M.Kubota rahbarligidagi delegatsiya O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri O'.Sultonov bilan uchrashdi. Muzokaralarda Toshkentda zamonaviy

¹ «Халқ сўзи», 1995 йил 13 сентябрь.

² «Туркистон», 1995 йил 26 ноябрь.

³ «Халқ сўзи», 1996 йил 4 июнь.

⁴ «Халқ сўзи», 1996 йил 4 июнь.

vagonsozlik zavodi qurilishga kelishib olindi. Uchrashuv yakunida O‘zbekiston va Yaponiya xukumatlari o‘rtasida notalar almashinildi.¹

1996 yil 25 sentyabr kuni Yaponiya milliy neft korporatsiyasi Prezidenti Kuniyu Kamatsu boshchiligida delegatsiyani Birinchi Prezidentimiz qabul qildi. Muloqotda milliy korporatsiyasi hamkorligida O‘zbekistonning ne‘ft va gaz salohiyatini Osiyo bozoriga taqdim etishga kelishib olindi va hamkorlikka oid masalalar muxokama etildi.²

1997 yil 2 mayda Yaponiyaning «Sakura» banki boshqaruvi raisi Ken-ichi Susmatsu Birinchi Prezident I.Karimov bilan uchrashdi.³

1997 yil 30 aprelda Toshkentda «Sakura» bankining vakolatxonasi ochildi. Suhbatda hamkorlikni rivojlantirish masalalari muxakoma qilindi.⁴

1997 yil 7 iyul Birinchi Prezidentimiz Yaponiya Libiral-demokratik partiyasi vitse-prezidenti Kezo Obuchi rahbarligidagi delegatsiyani qabul qildi. Suhbatda ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalarini kengaytirish, O‘zbekistonda neft-gaz, kon va to‘qimachilik sanoati, kommunikatsiyalar va transport tizimini rivojlantirish masalalar bo‘yicha fikr almashuvlar bo‘ldi.⁵

1997 yil 18 avgust «Samsung elektroniks» kompaniyasi raisi va ijrochi direktori Kang Ku Jingni Birinchi Prezidentimiz qabul qildi. Suhbatda O‘zbekiston korxonalari bilan ushbu kompaniya o‘rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.⁶

1997 yil 5 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Yaponiyaning iqtisodiy rejalashtirish davlat vaziri Taro Asso boshchiligidagi hukumat delegatsiyasini, Yaponiyaning «Keyzay Do Yukay» korporativ rahbarlar uyushmasi Prezidenti Koichi managuchi boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuv chog‘ida investitsiyalarni himoya qilish, ikki

¹ «Халқ сўзи», 1996 йил 15 июнь.

² «Ўзбекистон овози», 1996 йил 26 сентябрь.

³ «Халқ сўзи», 1997 йил 3 май.

⁴ «Туркистон», 1997 йил 1 май.

⁵ «Халқ сўзи», 1997 йил 8 июль.

⁶ «Халқ сўзи», 1997 йил 19 август.

tomonlama soliq solishga yo‘l qo‘ymaslik, ikki davlat o‘rtasida teng xuquqlik asosida to‘lakonlik hamkorlik qilish uchun zarur bo‘lgan xuquqiy asoslar yaratish masalalari muxokama qilindi. Shu kuni vazirlar maxkamasida bosh vazir O‘.Sultonov bilan uchrashuv bo‘ldi. Yaponiya hukumati O‘zbekiston Respublikasining taqdim etgan grandlar buyicha ayriboshlash notalari imzolandi.¹

1998 yil 25 yanvar kunlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O‘. Sultonov boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi amaliy tashrif bilan Yaponiyada bo‘ldi. Tashrif chog‘ida Yapon ishbilarmonlari vakillari, bir qator vazirliklar, idoralar rahbarlari «Mitsubits korporeyshn», «Sumitomo korporeyshn», «Mitsui» kabi yirik savdo kompaniyalari bilan uchrashuv va muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Yaponiya «Eksonbanki» binosidan chet el investitsiyalarini O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb etish masalalari bo‘yicha seminar o‘tkazildi.²

1998 yil 24 aprelda Yaponiyaning tashqi savdo tashkiloti (JETRO) raisi Toru Toeshimani Birinchi Prezidentimiz qabul qildi. Suhbatda o‘zaro hamkorlik aloqalari bilan bog‘lik masalalar bilan yuzasidan fikrlar almashildi.³

1998 yil 28 aprelda Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiya iqtisodiy tashkilotlar Federatsiyasi (Kedanren) raisi, «Toyto motor korpopeyshn» korporatsiyasi raisi Shochiro Toyto rahbarligidagi delegatsiyani qabul qildi. Suhbatda yirik transport loyihalari, yo‘l kamunikatsiyalari, turizim industriyasi va boshka sohalaridagi hamkorlikni takomillashtirish kabi masalalar yuzasidan fikrlar almashindi. Shu kuni delegatsiya O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O‘.Sultonov va Tashqi iqtisodiy aloqalar vaziri E.G‘aniev bilan uchrashdi.

1998 yil 11 iyunda Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiyaning (Namurasekyuritis Ko) kompaniyasi raisi Masashiy Sutzukini qabul qildi.

¹ «Халқ сўзи», 1997 йил 6 сентябрь.

² «Халқ сўзи». 1998 йил 26 январь.

³ «Халқ сўзи», 1998 йил 29 апрель.

Suhbatda ikki tomonlama aloqalarni kengaytirishga oid masalalar muxokama qilindi.¹

1998 yil 16 iyunda O‘zbekiston rahbari Yaponiyaning xorijiy iqtisodiy hamkorlik jamg‘armasi (OISF) vitse Prezidenti Tomio Uchidani qabul qildi. Suhbatda O‘zbekiston bilan ushbu jamg‘arma o‘rtasida ikki davlat manfaatlariga javob beradigan yangi loyihalarni ro‘yobga chiqarishda hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha fikrlar almashindi.²

1999 yil 6 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Do‘rmon qarorgohida Yaponiyaning (Keyzay Doyukay) korporativ rahbari uyushmasi Prezidenti Koyuchi Milaguchi boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashadi. Suhbatdagi ikki munosabatlarni rivojlantirish masalalari ko‘rib chikildi.³

1999 yil 26 mayda Yaponiyaning eksport-import banki boshqaruvchisi Xiroshi Yasudani Oqsaroyda Birinchi Prezident I.Karimov qabul qildi. Suhbatda O‘zbekiston bilan «Eksembank» o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha fikr almashildi. Tashrif davomida mehmonlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ham bo‘ldilar.⁴

1999 yil 28 oktyabr Birinchi Prezident I.Karimov Yaponiyaning O‘zbekistondagi faqulodda va muxtor elchisi Kioki nakayamani uning iltimosiga ko‘ra qabul qildi. Elchi Birinchi Prezidentga yapon geologlarini ozod qilishidagi yordami uchun Yaponiya Bosh vaziri K.Obuchining tashakkurnomasini topshirdi va bu davlatning rasmiy vakili sifatida shaxsan o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildirdi. Suhbatda ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarini rivojlantirish va boshqa masalalar yuzasidan fikr almashildi.⁵

1999 yil 14 dekabr Yaponiya xalqaro hamkorlik banki (JBIC) boshqaruvchisining o‘rinbosari hamda boshkaruvchi direktorii Yoseki Nagase

¹ «Халқ сўзи», 1998 йил 12 июнь.

² «Ўзбекистон овози», 1998 йил 17 июнь.

³ «Халқ сўзи», 1998 йил 12 июнь.

⁴ «Ўзбекистон овози», 1998 йил 17 июнь.

⁵ «Халқ сўзи», 1999 йил 29 октябрь.

rahbarligida delegatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasida bo‘ldi. Bo‘lib o‘tgan muzokaralar so‘ngida O‘zbekiston Respublikasi hukumati va (JBIC) o‘rtasida telekommunikatsiya tizimini kengaytirish loyihasini ikkinchi bosqich hamda Samarkand, Buxoro va Urganch aeroportlarini qayta ishlash loyihasining ikkinchi bosqichi to‘g‘risidagi kredit bitimlari imzolandi.¹

2000 yil 19 iyulda Oksaroyda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JBIC) Prezidenti Kimio Fujituni qabul qildi. Uchrashuvda hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari xususida fikrlashib olindi.²

Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi - JICA texnikaviy hamkorlikni amalga oshirish maqsadida Yaponiya hukumati ko‘magi bilan 1974 yilda tashqil etilgan. Uning vakolatxonasi 1999 yil martida ochilgan. Vakolatxona 4 yo‘nalishda ish olib boradi:

- texnikaviy hamkorlik;
- taraqqiyot modellarini o‘rganish borasida xalqaro almashuv dasturlari;
- volontyor (ko‘ngilli)larni yuborish dasturlari va beg‘araz moliyaviy yordam, ya’ni grant ajratish.

Muhim tomoni shuki, agentlik o‘zbek yoshlarini Yaponiyaga, yapon mutaxassislarini O‘zbekistonga yuborish bilan birga biznes asoslari hamda yapon tilini o‘rgatish kurslarini ham tashkil etdi. O‘zbekistondagi vakolatxonasi JICA ning dunyodagi vakillari orasida yagona ayol Kae Yanagisava boshqarib kelyapti. Vakolatxona qoshida o‘zbek - yapon markazi faoliyat ko‘rsatyapti. Bundan tashqari yangi loyiha shifakorlarga, hamshiralarga mo‘ljallangan loyiha ishlab chiqilgan. Dastur asosida O‘zbekiston yoshlarining har yili 20 nafarini Yaponiyaga bir oy muddatga taklif qilinadi. Ular yapon oilalarida yashab, shu erda o‘qishadi. Yaponiya xaqida kunchiqar yurt to‘g‘risida tushuncha hosil qiladilar. Bugungi kunga kelib, Yaponiyada ta‘mil olayotgan yoshlarimiz soni 100 nafarga etdi.

¹ «Халқ сўзи», 1999 йил 15 декабрь.

² «Туркистон», 2000 йил 20 июль.

Shuningdek, Yaponiyadan O‘zbekistonga turli sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi 32 mutaxassis keladi. Ular Samarkand, Nukus, Piskent, Toshkent shaharlarida ishlamoqda.¹

2000 yil 15 noyabr Oksaroyda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Yaponiya tashqi ishlar vazirining maxsus yordamchisi Sumio Edamurani qabul qildi. Mulokot chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq aloqalarini kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.²

2001 yil 15 mayda Yaponiyaning qo‘shmachilik «Keydzay Doyukay» korporatsiya rahbarlar uyushmasi Prezidenti Koichi Minaguchi rahbarligida delegatstyani O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov qabul qildi. Suhbatda O‘zbekiston va Yaponiya iqtisodiy munosabatlarini har tomonlila rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar yuzasidan fikr almashildi. Tashrif davomida delegatsiya yurtimizning qator vazirlik va idoralarida bo‘lib, muzokaralar o‘tkazdi. «Keydzay Doyukay» korporatsiyasi uyushmasi Yaponiyadagi eng yirik kompaniya va korporatsiyalarining 1600 ga yaqin rahbar xodimlaridan tashkil topgan. «Keydzay Dobkay» korporatsiyasi uyushmasi tashabbusi bilan Yaponiya Uzbekistonga imtiyozli kreditlar ajratdi.³

2001 yil 11 avgust O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov Oqsaroyda Yaponiyaning «Itlchu korporeyshn» boshqaruvi raisi Minoru Murafushini qabul qildi. Suhbatda O‘zbekiston bilan ushbu kompaniya o‘rtasidagi hamkorlik ko‘lamini kengaytirish, hususan hamkorlikda amalga oshirilajak yangi qo‘shma loyihalar borasida batafsil fikr almashildi.⁴

Yaponiya tashqi ishlar vaziri Yoriko Kavaguchi xonim rahbarligidagi delegatsiya rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Bu delegatsiyani O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri S.Safoev kutib oldi. Tomonlar ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy, savdo, iqtisodiy va ijtimoiy

¹ «Халқ сўзи», 2004 йил 24 апрель, №85.

² «Халқ сўзи», 2000 йил 16 ноябрь.

³ «Халқ сўзи», 2001 йил 16 май.

⁴ «Туркистон», 2001 йил 12 август.

munosabatlarning bugungi axvoli, istiqboldagi vazifalari mintakaviy havfsizlikni va barqarorlikni ta'minlashga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi. Uchrashuv so'ngida O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi 2003 yil 22 dekabr kuni Tokioda imzolangan Havo aloqasi to'g'risidagi Bitim hamda Yaponiya hukumatining Toshguzar – Boysun - Qumqo'rgon yangi temir yo'lini barpo etish uchun 150 million AQSH dollari miqdoridagi imtiyozli kredit bo'yicha almashuv notalri imzolandi. Hujjatlarga S.Safoev hamda Yoriko Kavaguchi xonim imzo chekdi. Yaponiya tashqi ishlar vaziri Johon iqtisodiyoti va diplomatiya univetsitetida bo'lib, mamlakatimizdagi xorijiy elchixonalar rahbarlari, universitet o'qituvchilari va talabalari bilan uchrashdi. Yoriko Kavaguchi xonim Universitetda «Yangicha mezon: Markaziy Osiyo - Yaponiya» mavzusida ma'ruza qilib, o'z mamlakatini mintaqamiz davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish borasidagi qarashlarini bayon etdi. Kavaguchi xonimga jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining «Faxriy doktor» unvoni berildi. Yaponiya delegatsiya a'zolari O'zbekiston zmini tuprog'ida dafn etilgan yapon fuqarolari xotirasiga bunyo etilgan yodgorliklarini ziyorat qildilar.¹

Yaponiya hukumatining Taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi doirasida O'zbekistonda telekommunikatsiya, transport infuraturuzilmasi va ta'lim sohalaridagi loyihalari ijrosi uchun 560 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli davlat krediti berildi. Yaponiya xalqaro hamkorlik banki esa yoqilg'i energetitika va to'qimachilik sohaları uchun O'zbekistonga 720 million AQSH dollari miqdorida kredit berdi.

1995-2002 yillarda Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan kreditlar miqdori 1.6 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi yildan yilga oshib bordi. O'zbekistonda 10 dan ortiq O'zbekiston-Yaponiya qo'shma korxonalari barpo etildi va bugungi kunga kelib, o'z faoliyatini kengaytirmokda. 2008 yil boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Yaponiya bilan iqtisodiy aloqlar bu darajada rivojlantirish

¹ «Халқ сўзи», 2004 йил 27 август.

yapon investitsiyasini ko'proq O'zbekistonga jalb etish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta foyda keltirmoqda. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritayotgan xorijiy investitsiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgani e'tiborga sazovordir. 2008 yilda 1 milliard 700 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p demakdir.¹ Bu kuzatilgan investitsiyalarda Yaponiya korxona va tashkilotlarning ham salmoqli ulushi bor.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining sog'lom bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida Sharqning rivojlangan davlatlari bilan olib borilayotgan iqtisodiy hamkorligining ahamiyati benihoyat kattadir. Bu jarayonni anglash va tushunish ham katta ilmiy va siyosiy ahamiyatga molikdir. Ushbu tarixiy davrni va olib borilgan iqtisodiy aloqalar jarayonini istiklol nuqtai nazaridan kompleks tarzda taxlil etishda eng so'nggi manbalar, jumladan, xorijiy arxiv hamda vaqtli matbuot materiallari, qonunlar xujjatlari, statistik ma'lumotlar va boshqa manbalar alohida o'rin tutdi.

Mustaqillik yillarida Respublikamiz dunyoning taraqqiy etgan davlatlari bilan ikki tomonlama foydali. siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlarini rivojlantirishga harakat qilmokda. Hozirgi kunda O'zbekiston dunyoning eng tarqqaiy etgan Evropa davlatlaridan tashqari, Osiyoning, jumladan, Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari -

Xitoy, Janubiy Koreya, Indoneziya, Malayziya va nixoyat Uzoq sharqda qudratli bo'lgan Yaponiya davlati bilan ham diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishga erishdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston-Yaponiya munosabatlariga alohida e'tibor bilan qarab kelmoqda. Chunki Yaponiya hukumati qisqa vaqt ichida o'zining oqilona olib borgan ichki va tashqi siyosati tufayli dunyoning eng boy rivojlangan nufuzli davlatiga aylandi.

¹ Каримов И.А. Жошон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон. 2009

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan, diplomatik rivojlanish yo‘lga tushib olgan, Jahon hamjixiyatida o‘zining munosib o‘rni va o‘z qarashlariga ega bo‘lgan davlatlarga havas bilan qarab, ular bilan qalin do‘stlik va yaqin hamkorlik iplarini bog‘lash O‘zbekiston davlatining tashqi siyosatini belgilab berdi. Nafaqat Yaponiya, balki butun jahon davlatlari bugungi kunda O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng barqaror mamlakat va ishonchli hamkor sifatida tan olmoqda. Shu bois ham o‘tgan yillar moboynida ikki mamlakat o‘rtasida barcha sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarimiz tobora rivojlanib bormoqdi. Buning boisi bir tomondan Yaponiya O‘zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo‘lib 1991 yil 28 dekabdayoq tan olib, ko‘p o‘tmay 1992 yil 26 yanvardan ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan bizda qadimiy Buyuk ipak yo‘li orkali bog‘langan umumiylik va o‘xshashlikning mavjudligidir.¹ Jumladan, kattaga xurmat, kichikki izziat, oilaga sadoqat, saramjonu-sarishtalik, hullas barcha sharqona urf-odatlarimiz Yaponiya xalqi O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, O‘zbekistonimizning mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lishidan manfaatdor mamlakat ekanligiga shubxamiz yo‘q. Shuning uchun ham parlametimizning birinchi sesiyasida aytilganidek, O‘zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalarni mustaxkamlash ekanligi bejiz emas edi. Chunki Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari mintakamizning xavfsizlik va barqarorlik tinchlikka erishish, atrof muhitni muxofaza qilish masalalarini hal qilishda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish va qo‘shma korxonalar tuzishda faol ishtirok etishni ko‘zda tutgan edi. Bu borada Yaponiyaning dunyoga mashhur «Mitsui va KO LTD», «Mitsubisi koporeyshn», «Sumitoto korporeyshn», «Tollen korporeyshn», «Chori» kompaniyalarining o‘rni salmoqli bo‘lmokda. Shuningdek, malaka almashish, tajriba orttirish borasida ham keng aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda.

¹ Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ. – Т.: «Адолат», 2001., 338-бет

Faqat 1994 yilda 40 dan ortiq O'zbekiston yoshlari Yaponiyada malaka oshirib qaytdilar.¹

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Yaponiyaga tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida do'stlik, startegik sheriklik va hamkorlik to'g'risida hamda o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi isloxlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi ikki qo'shma bayonot imzolandi.² Bu qo'shma bayonotning imzolanganligi ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yangi sahifa ochganligidan dalolat beradi.

Imzolangan bu strategik hamkorlik uzoq muddatli, qalin o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni o'z ichiga olgan hamkorlikdir. Chunki strategik hamkorlik deganimizda biz ikki mamlakat o'rtasida ma'lum sinflar manfaatlarini amalga oshirish maqsadida olib borgan shartnomani tushunmay, balki keng ma'nodagi mintakalar o'rtasidagi siyosiy, iqtisoliyo va harbiy sohalardagi hamkorlik aloqalarini tushunmogimiz joizdir.

Zero, bu hamkorlik har ikki mamlakat xalqlari uchun ham birdek xizmat qilishga qaratilgan strategik hamkorlikdir. Mazkur hujjatda tomonlar tenglik, o'zaro anglovchi, xalqaro huquqning umumiy qabul qilingan tamoyil va me'yoo'rlariga asoslangan holda do'stona munosabatlar hamda strategik hamkorlikni rivojlantirish niyatlarini bildiradi. O'z navbatida Yaponiya xukumati O'zbekiston bilan sheriklik o'rnatishdan manfaatdor ekanligini izxor etib, bu sherikchilik Markaziy Osiyo mintaqasida eng muhim va katta salohiyatni sheriklik deb baholaydi. Gap shundaki, 1995 yildan buyon Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi bir milliard 600 million AQSH dollaridan oshib ketdi. Bu borada Yaponiya - O'zbekiston iqtisodiy hamkorligi yildan-yilga oshib borganligini ko'zatishimiz mumkin. Bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik O'zbekistonning xalqaro siyosiy maydonda o'ziga hos o'rniga egaligini ko'rsatadi.

¹ Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи учунчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи Т., «Шарк» 2000 451-бет.

² «Ўзбекистон овози» 2002 йил, 6 август.

Bugungi kunda Jahon moliyaviy inqirozni boshdan kechirayotgan bir vaqtda O'zbekiston – Yaponiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar to'xtab qolmadi. Aksincha, kengayib bormokda. Birinchi Prezidentimizning Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga bag'ishlangan asarining¹, Tokio shahrida, Yaponiya iqtisodiyot, savdo-sanoat vazirligi (ISSV) da taqdimotini o'tkazilishi ham fikrimizning yaqqol isbotidir. Taqdimotda so'zga chiqqan Yaponiya tashqi savdoni rivojlantirishga ko'maklashish tashkiloti (JETRO) vitse- Prezidenti M.Takeda Islom Karimov asarida keltirilgan O'zbekistonning 2008 yildagi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari mamlakat hukumati tomonidan jahon moliyaviy inqirozini bartaraf etish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar, Xususan, 2009-2010 yillarga mo'ljallangan inkirozga qarshi choralar dasturining o'z vaqtida qabul qilinganligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, O'zbekistonning iqtisodiy rivoji va eksport sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishi mamlakatda ustuvor iqtisodiy siyosat olib borayotganniga guvohlik beradi va «Yaponiya barqaror va ishonchli hamkor» bo'lishiga zamin yaratadi.² Ushbu fikrlarni taqdimotda qatnashgan TSRKTning xorijiy davlatlar iqtisodiyoti taxlili boshqarma M.Yabuuchi, JETRO tashqi savdo muassasasi bosh direktori X.Okada, Tojikiston iqtisodiy tadqiqotlar instituti direktori, akademik Nuriddin Qayumov, Osiyo jurnalistlar uyushmasi raisi Javd Ahmad, «Simeks» kompaniyasi Avstriya bo'limi vakili Stefan Laidau kabi yirik siyosatchilar ham o'z chiqishlarida maqullab O'zbekistonda Jahon inqirozi ta'sirini engib o'tishning aniq va real yo'li mavjud ekanligini aytib o'tdilar.

2012-2017 yillarda Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyasi bir milliard 600 million AQSH dollaridan oshib ketdi. Bu borada Yaponiya - O'zbekiston iqtisodiy hamkorligi yildan-yilga oshib borganligini ko'zatishimiz mumkin. Bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik O'zbekistonning xalqaro siyosiy maydonda o'ziga hos o'rniga egaligini ko'rsatadi

¹ Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартарф этиш йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон. 2009.

² «Халқ сўзи», 2009 йил 8 апрель.

Bundan ham ko‘rinib turibdiki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonning Yaponiya bilan iqtisodiy aloqalari kundan-kunga kengayib bormoqda. Iqtisodiy munosabatlar tobora rivoj topmoqda.

II.2. Madaniy hamkorlik aloqalari.

O'zbekiston-Yaponiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yana bir muhim jihati bu madaniy sohadagi hamkorlik. Ikki davlat o'rtasidagi madaniy sohadagi hamkorlik asosan madaniyat, sanat va ta'lim sohasida keng quloch yoymoqdi.

Bu sohadagi alohalar ham biz yuqorida masalalarda qayd etib o'tganimizdek Birinchi Prezidentimizning Yaponiyaga qilgan rasmiy tashrifidan so'ng yana jadallashdi.

Tokioda Birinchi Prezident Islom Karimov va Yaponiya Bosh vaziri Jun'itiro Koidzumi imzolagan tarixiy xujjatda ikki tomonlama hamkorlikning muhim vazifalari sifatida savdo, sarmoya, texnologiya, ta'lim sohalaridagi aloqalarni yanada rivojlantirish belgilab qo'yilgan. Juda qisqa vaqt jahonning eng ilg'or mamlakatlari ichida o'rin olishiga sabab bo'lgan olimlardan biri mamlakatda ta'lim sohasida o'tkazilgan isloxatlarning turi olib borilganida, deb o'ylaymiz.

Yaponiyadagi ta'lim tizimi 1947 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonun» va «maktab ta'limi to'g'risidagi qonun» negizida amalga oshiriladi.

Majburiy ta'limning birinchi bosqichi 6-12 yoshli bolalar uchun olti yillik boshlangich maktab hisoblanadi. Majburiy bo'lgan olti yillik ta'limdan so'ng imtixonlarni topshira olgan o'quvchilar majburiy ta'limning uch yillik ikkinchi bosqichida (12-15 yoshli) o'qishni davom etiradilar. Shu bilan majburiy ta'lim to'g'allanib, kelgusi bosqich talim jarayonlari ixtiyoriy ravishda kontrakt asosida puli olib boriladi.¹

Hisob-kitoblarga qaraganda majburiy ta'limni o'tab chiqqan o'quvchilarning 94% bu imtixonlardan o'ta olish darajasida bilim olishga erishiladi.

Yuqori malakali ishchilar korxonalardagi, hususiy firmalar qoshidagi o'quv markazlarida, qisqa muddatli kurslar va hususiy xunar-texnika maktablarida

¹ Кудратхужаев Ш., Қирғизбоев А. Ўзбекистон-Япония ўзбек дипломатиясининг янги босқичи. Т.: 2002. Б-26.

tayyorlanadi. Shuningdek, besh yillik texnik kollejlari mavjud bo'lib, 20 xildan iborat muhandislik yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olish imkoniyati bor. Ularning ko'pchiligi davlatga qarashli bo'lib, talabalar katta tanlov asosida qabul qilinadi. Bu kollejlarni bitirgan talabalar davlat tomonidan ish bilan ta'minlanadilar. 1976 yillardan boshlab yirik firma va kompaniyalar qoshida maxsus tayyorgarlik maktablari tuzilgan. O'quvchilar qaysi firma yoki kompaniyalar hisobidan bilim olsa, o'sha firmalar tomonidan ish bilan ta'minlanish huquqiga ega. Oliy ta'lim universitetlar va institutlarda olib borilib, ularga o'rta maktabning to'lik bosqichini o'tab kelgan yoshlar qabul qilinadi. Oliy ta'limni egallash uchun to'rt yil o'qish joriy o'ilingan.

Mutaxassislar tayyorlashda davlat universitetlari etakchi rol o'ynaydi. Bulardan tashqari xususiy o'quv yurtlari bo'lib, ularda o'qish uchun katta miqdorda kontrakt to'lash bo'ladi.

Eng yirik davlat universitetlari Tokio, Senday shahrida joylashgan Toxoku universiteti, Kioto, Osaka, Sapporo, nagoe, Fukuoke, Senday universitetlari hisoblanadi.

Hususiyl universitetlardan eng mashhuri Vasoda, Keto, Tyuo, Tokiodagi Meydzi, Osakadagi Kansay, Kiotodagi Rutsumey universitetlari hisoblanadi. Yuqoridagilardan tashqari 200-300 talabaga ega bo'lgan kichik universitetlar ham Yaponiya ta'lim jarayonlarida faol qatnashadilar.¹

Yaponiya ta'lim sohasiga nazar tashlar ekanmiz, uning ko'p jihatlari O'zbekistonda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga yaqin tomonlarini qo'ramiz. Masalan, Yaponiya ta'lim tizimiga muvofiq, boshlangich maktabning olti yillik birinchi bosqichi va uch yillik ikkinchi bosqichi majburiy ta'lim tizimiga kirmaydi. Bizda esa «ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyolash Milliy dasturi»ga muvofiq, 12 yillik

¹ Кудратхужаев Ш., Қирғизбоев А. Ўзбекистон-Япония ўзбек дипломатиясининг янги босқичи. Т.: 2002. Б-27.

majburiy ta'lim joriy qilingan. Shunga binoan, O'zbekistonda maktab tizimi umumiy majburiy ta'lim (V-IX sinflar) jarayonini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda majburiy 9 yillik maktabni bitirgan yoshlar kasb-xunar kollejlariga kirib o'qish yoki o'qishni o'z hoxishiga ko'ra akademik litseylarda davom ettirish xuquqiga ega. O'zbekistonda kasbiy ta'limni egallash uch yil davomida olib boriladi. Eng kichik joyi shundaki, yaponlar bolaga ta'lim berishni bog'chadan emas, balki bola tug'ilganidan boshlanadi, degan hakidaga amal qilsalar, bizda esa, bolaga tarbiya berishni beshikdan boshlab ota-bobolarimizdan qolgan udum asosida olib borishga hakarakat qilmokdamiz. Shunga qaramay, Yaponiyadagi boshlang'ich va o'rta ta'lim jahondagi eng mukammal, samarali va talabchan tizim hisoblanadi. Nafaqat muayyan doiradagi odamlarning, balki mamlakat butun aholisining e'tibori ta'limga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham murakkab texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishda barcha yapon ishchi ahli alohida g'ayrat, intizom va sabot bilan muvafaqiyatli qatnashish hususiyatiga egadir.

Yaponiya davlatining jahondagi eng ilg'or taraqqiyot darajasiga erishuviga sabab bo'lgan omillardan yana biri mamlakatda ilm-fanga bo'lgan katta e'tibor bilan bog'lik, deb bilamiz. Yaratilagan va yaratilayotgan g'aroyib ixtirolar, yapon mo'jizasi, deb tan olingan kashfiyotlarning barchasi ilmga bo'lgan e'tiborning natijasidir. Shuning uchun ham Yaponiya ta'lim sohasida erishgan yutuqlari bilan nafaqat Osiyoda, balki butun jahonda mashhur davlatga aylangan.

Shu tufayli O'zbekistonda qabul kilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» buyicha ta'limning barcha sohalari bo'yicha olib borilayotgan islohatlarga befarq, qarab turmasdan, hayotga joriy etish butun jamiyat mas'ul va faol bo'lmog'i lozim. Binobarin, bizning ta'lim sohasidagi islohatlarimiz Yaponiyada ham yuksak baholanmoqda. Birinchi Prezidentimiz Yaponiyaning eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Beseda univertsitetida bo'lib, u erdagi uchrashuv chog'ida shu universitetning rektori janob qo'shima Takayasu, Birinchi Prezidentimizning davlatni boshqarish, jahon

jamiyati qatori Yaponiya bilan aloqalarni mustahkamlash borasidagi ulkan xizmatlarini alohida takidlab o'tdi. Shu bilan birgalikda izchilik bilan amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini» samaralari nafaqat mamlakatimizda, balki xalqaro miqyosida ham e'tiborga loyiq ekanligini qayd etdi.

Shundan so'ng, Besida universitetida ilmiy kengashning qaroriga binoan Islom Karimovga mazkur oliy o'quv yurtining faxriy doktor unvoni berildi.

Tashrif chog'ida Islom Karimov Yaponiyada ta'lim olayotgan O'zbekistonlik 70 yaqin talabalar bilan uchrashib, ular bilan mamlakatimiz uchun zamonaviy kadrlarni ahamiyati, bu borada mamlakatimizga Yaponiyaning ko'rsatayotgan yordami xususida suhbat o'tkazdi. Eng quvonarlisi shuki, O'zbekiston va Yaponiya hukumatlari o'rtasida 348 million ien miqdorida grant ajratish to'g'risida bitim imzolandi. Bu bitimga muvofik; yana 20 nafar O'zbekistonlik yigit qizlarning Yaponiyada taxsil olishi uchun imkoniyatlar yaratildi.¹

Ta'lim sohasidagi hamkorligimiz har ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan strategik hamkorlikni uzviy qismiga aylanib borayotgani quvonarlidir.

Zero, ushbu alokalar tom ma'noda o'zaro ishonchga yo'g'irilgan munosabatlarni nazarda tutadi. Ikki tomonlama hamkorlikning muhim vazifalari sifatida savdo, sarmoya, texnologiya, ta'lim va boshqa soxalardagi aloqalarni yanada rivojlantirish belgilab berilgan. Tashrif chog'ida tomonlar Markaziy Osiyo hududida xavfsizlik masalalarini atroflicha muhokama qildilar.

O'zA maxsus muxbiri Anvar Boboev Afg'oniston masalasida har ikki mamlakat uchun ham bu mintaqada barqaror tinchlik o'rnatilishidan manfaatdorlik ta'kidlab o'tilganligini alohida qayd qildi. Shuningdek, Yaponiya tomoni O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadro qurollidan xoli zona yaratish tashabbusini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlaydi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti

¹ Шодмонов Х Японияда суд тизими. «Хаёт ва қонун», 2004. №6 Б-38.

Islom Karimov va Yaponiya Bosh Vaziri Jun'itiro Koidzumi tomonlaridan imzolangan strategik hamkorlik haqida bitim bilan birga iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qo'shma bayonot munosabatlarimizda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esaiqtisodiyotning ko'plab soxalar bo'yicha ikki tomonlama hamkorlikni takomillashtirishni nazarda tutadi.¹

Jumladan, energetika soxasidagi hamkorlik, savdo-iqtisodiy munosabatlar, sarmoyalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish, havo aloqasida hamkorlikni yanada kengaytirish kabi masalalar qamrab olingan. Yaponiya bundan buyon ham O'zbekistondagi islohatlarni qo'llab-quvvatlashi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Barcha hujjatlar Yaponiya Bosh Vazirining qarorgohida qabul qilingani Yaponiyaning mamlakatimizga, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovga nisbatan yuksak xurmatidan dalolatdir. Haqiqatdan ham, barcha siyosiy, iqtisodiy hujjatlar ko'lami, safar chog'ida Islom Karimovning hukumat, ishbilarmon va akademik doiralar vakillari bilan samarali, sermazmun, ochiq, do'stona muzokaralari ushbu tashrifning yuksak darajada o'tganligidan dalolat beradi. Quvonarlisi shuki, taomilga binoan, Yaponiya imperatori hech mahal bir davlat rahbarini, u necha marta Yaponiyaga tashrif buyurishi va tashrifi qanday maqomda o'tishidan qat'i nazar, ikki marotaba qabul qilmaydi. Esingizda bo'lsa, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov kunchiqar mamlakatda birinchi bor 1994 yilning may oyida bo'lganida imperator saroyida mehmon bo'lib, Akoxito bilan uchrashgan edi. Bu safargi tashrifida ham Islom Karimov imperator saroyida mehmon bo'ldi. Shunisi diqqatga sazovorki, imperator kamdan-kam hollarda mehmonlarni shaxsan kutib olib, kuzatib qo'yadi. Mamlakat xalqning faxri hisoblangan bu shaxsning O'zbekiston rahbariga g'oyat iliq munosabat bildirishi muzokaralardagi ochiqlik va samimiyligi, yurtimizga xayrixohligi kishini g'ururlantiradi. Demak, Yaponiya imperatorining davlatimiz rahbariga ko'rsatayotgan ehtiromi zaminida katta

¹ Ш.Қудратхўжаев, А.Қирғизбоев. Ўзбекистон-Япония: ўзбек дипломатиясининг янги босқичи. Тошкент-2002. 28-б.

ma'nog'mazmun mujassam. Zero, xalq o'zi ehtirom etadigan, fahrlanadigan kishining nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlaydi.

1997 yil 19 martda Yaponiyaning «Nishe ivai korporayshn» kompaniyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezident xuzuridagi istedadli yoshlarni xorijda ta'lim olishini qullab-quvvatlash bo'yicha «Umid» jamgarmasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. Ushbu kompaniyaning Prezidenti M.Kutsamichi O'zbekistonga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasining bosh vaziri O'.Sultonov va I.Karimov bilan uchrashdi.¹

2000 yil 28 sentyabr Vazirlar Maxkamasida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari H.Karamatov va O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda muxtor elchisi K.Nakayama hukumatlararo almashuv notalarini imzoladi. Hujjatga ko'ra Yaponiya xukumati O'zbekiston Respublikasi davlat amaliy san'ati muzeyini audio vizual texnika bilan jihozlash uchun 46 million ien (440 ming AQSH) dollari ajritdi.²

2000 yil 6 oktyabrda Yaponiya moliya vazirligi siyosiy tadqiqotlar institutining Prezidenti X.Vatanabe boshchiligidagi instut delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasining bosh vazir o'rinbosari moliya vaziri R.Azimov bilan uchrashdi. Mehmonlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ham bo'lib, muzokaralar o'tkazildi.³

2004 yil 18 mart kuni mamlakatimizda mehmon bo'lib turgan Yaponiya tashqi ishlar vazirligining parlament kotibi Isao Masumiya rahbarligidagi delegatsiya Toshkent to'kimachilik va engil sanoat institutida bo'ldi.⁴

2002 yilda Yaponiya xukumati «Toshkent to'kimachilik va engil sanoat institutini jihozlarini takomillashtirish» loyihasi asosida mazkur institutiga beg'araz yoodam sifatida 440 million ien (4 million AQSH dollar) miqdorida garant ajratgan edi. Buning samarasi ularoq, instiutda CENTEXUZ to'kimachilik

¹ «Халқ сўзи», 1997 йил 20 март.

² «Халқ сўзи», 2000 йил 29 сентябрь.

³ «Туркистон», 2000 йил 7 октябрь.

⁴ «Ўзбекистон овози», 2004 йил 19 март.

maxsulotlarini sertifikatlashtirish hamda CAD kiyim kechak payabzal. Dizaen va kompyuter markazlari faoliyat yurita boshladi. Bundan tashqari qator kafedralar o'quv laboratoriyalari zamonaviy asbob uskunalar bilan jihozlandi. 1996 yili mamlaktimizda temir yo'li transportini takomillashtirish maqsaddida O'zbekiston xukumati va Yaponiya tashqi iqtisodiy hamkorlik jamgarmasi o'rtasida umumiy qiymati 6 milliard 102 million ienga teng kredit bitim imzolangan edi. Mazkur loyiha asosida Yaponiyaning «Marobeni» korporatsiyasi hamkorligida Toshkentda zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan yo'lovchi tashish vagonlarini ta'mirlash zavodi ko'rib foydalanishga topshirildi.

2004 yil 23 mart kuni O'zbekiston Respublikasi davlat solik akademiyasida O'zbekistondagi Yaponiya xalqaro agentligi (LSA) O'zbekiston moliya vazirligi xuzuridagi soliq va buyujet siyosati markazi hamda soliq akademiyasi hamkorligida «Yaponiya soliq tizimi va soliq ma'muriyati» mavzusidagi treng o'tkazildi.¹ Seminar Yaponiya, moliyaviy ishlari instituti «Xalqaro hamkorlik bo'limi» soliq masalalari bo'yicha bosh maslaxatchi janob Yoshinobu Vatabavning «Yaponiya soliq tizimi to'g'risida, solig'larning solig' tizimidagi o'rnini» mavzusida ma'ruza bo'ldi.

2012 yil 15 mart kuni Toshkentda monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirish markazi hamda «JICA» agentligi ishtirokidagi qo'mita ularning hududiy bo'limlari xodimlari masalaini oshirishga qaratilgan «Raqobatning rivojlanishi siyosatining respublika va xorijda qo'llash amaliyoti» mavzusida seminar tashkil qilindi. Unda Yaponiyada bilimlarni, ortirib qaytgan mutaxassislarning xolis tajribasini hususiyatlari xaqida fikr mulohazalar tinglandi, seminar jarayonida videofilmlar, xorijda olingan taassurotlar xaqidagi ma'lumotlar namoyish qilindi. Jumladan, Yaponiyaning JICA, JICE xalqaro tashkilotlarining tashabbusi bilan 2000 yillarda Yaponiya hukumati bilan grantlar asosida mamlakatning oliy o'quv yurtlari bitiruvchi yoshlari Yaponiyaga borib, o'z bilimlarini mustaxkamlash xaqida kelishib olingandi. Bugunga kelib. Yaponiya

¹ «Туркистон», 2004 йил 24 март.

oliy o'quv yurtlarida 28 nafar talaba magistraturani bitirib, O'zbekistonga qaytib keldilar.¹

O'zbekiston Yaponiya o'rtasida ta'lim yo'nalishidagi hamkorliklarning natijalari to'g'risida ko'pgina misollar keltirishimiz mumkin. Biz bu o'rinda JICA, JICE va o'zbek-yapon inson omillarini rivojlantirish markazi vakolatxonalari tashabbusi bilan mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan loyihalar to'g'risida, xalqaro tashkilotlarning tashabbusi va sa'y-xarakatlari bilan 2000 yildan boshlab, Yaponiya xukumati grantlari asosida mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarini bitirib chikkan iqtidorli talabalar Yaponiyaga borib, o'z bilim va malakalarini oshirib keldi.

Yoshlarimiz universitetlarida hozirgi O'zbekiston taraqqiyoti uchun ustivor hisoblangan iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, xuquq, axborot texnologiyasini va xalqaro munosabatlar yo'nalishlarida jahon andozalaridagi bilim-malakalarni egallab keldi. Hozirgacha Yaponiya hukumatining beg'araz yordamida shu davlat stillendiyalari bilan ta'minlangan xolda 78 nafar O'zbekistonlik talabalar kunchiqar mamlakat universitetlari magistraturalarida ta'lim olib qaytib va shu kunda vatanimizning bir guruh yoshlari Yaponiyaga o'qish uchun jo'nab ketdi. 2004 yil 1 iyul kuni Respublikamiz oliy va O'rta maxsus ta'lim ta'lim vazirligida yoshlarni Yaponiyada o'qishi uchun navbatdagi shartnomani imzolashga bag'ishlangan yigilish bo'ldi. Unda Yaponiya tomonidan O'zbekistondagi Yaponiya elchixonasi maslaxatchisi, janob X.Takaxashi, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi JICAning O'zbekistondagi vakolatxonasi boshlig'i K.Yanagisava xonim, JICE tashkilotining talabalari almashish bo'yicha 2 bulim direktori K.Tanaka xonim ishtirok etdi.

Yaponiya granti ko'magi asosida viloyatlarda maktabda o'quv ilmiy va moddiy tomonlarni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni ham misol keltirishimiz mumkin.

¹ «Халқ сўзи», 2012 йил 2 июль.

Masalan, Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘ondagi 58 maktabda Yapon granti qo‘lga kiritildi. Bu yuqorida aytilgan hayrli ishlardan birdir. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xalqaro iqtisodiy aloqalar fakultetida Yaponiya elchixonasi hamda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi LSA tashabbusi bilan axborot markazi ochildi. Markaz talabalarga Yapon tilini o‘rgatish yapon madaniyati va san’ati urf – odataridan xabardor qilish shuningdek, iqtisodiy rivojlanish tamoyillari xaqida ma’lumotlar berish maqsadida tashkil etildi. Bu markazga Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri S.G‘ulomov, O‘zbekiston bilan Yaponiya o‘rtasidagi aloqalar ta’lim tizimining yanada rivojlanganligini ta’kidladi. Bugungi kunga kelib, mazkur universitetda 120 talaba Yaponiyada saboq olmoqda. Markaz ochilishida esa Yaponiyaning mamlakatimizdagi favqulodda va muxtor elchisi Akio Kavato ishtirok etdi.¹

2004 yil 14 sentyabrdan 12 oktyabrga qadar Toshkent shahrida Yaponiya madaniyat kunlari bo‘lib o‘tdi. Bu tadbir har yili o‘tkazilib, O‘zbekiston xalqini kunchiqar mamlakatlar madaniyati xaqida juda katta qiziqish bilan tanishib bordi. 1 oy davomida O‘zbekiston xalqi Yaponiyaning an’analari, zamonaviy hozirgi davr san’ati bilan tanishib bordi. Dasturda Yaponiyaning Serindzi Kempo jangovar san’ati, Yaponiyaning an’anaviy musiqa san’ati va tasviriy san’at va yapon kinofilmlari namoyish etildi.²

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida O‘zbekiston Yaponiya xukumatlari o‘rtasida Samarqand-G‘uzor-Termiz avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va qurish borasida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga muvofiq Yaponiya hukumati O‘zbekistonga zarur bo‘lgan texnik qismlar etkazilib berish masalasini oldi. O‘zbekistonga berilgan begaraz yordam 976 million ien bo‘lib, bugungi kunga kelib. umumiy berilgan moddiy yordam kunchiqar mamlakat tomonidan O‘zbekiston xalqi uchun 1.19 milliard AQSH dollariga tengdir. Bu Yaponiya hukumatining «Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi asosida olib

¹ «Халқ сўзи», 2004 йил 25 июнь.

² www.darvoza.uz.

boradigan begʻaraz yordamidir. Bu hujjatni Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri oʻrinbosari, tashqi iqtisodiy aloqalar agentligining raisi E.Gʻaniev va Yaponiyaning Oʻzbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Yuichi Kusumoto tomonidan imzolandi.¹

Hullas, mustaqillik yillarida Respublikamizning Uzoq Sharqdagi Yaponiya hukumati va xalqi bilan madaniy sohadagi hamkorlik aloqalari yildan-yilga kengayib bormoqda.

¹ www.gov.uz

X U L O S A

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'tgan davr kurrai zamindagi boshqa davlatlar orasida tutgan o'rnimizni yana bir karra baholash uchun ayni muddao bo'ldi.

Biroq hamma narsani bilishning asosi-qiyoslash deb bejiz aytishmagan. Jahon iqtisodiyotining shakillanish tajribalaridan kelib chiqib, o'n etti yil davomida amalga oshirgan isloxotlarimizga nazar tashlar ekanmiz, bir qator ahamiyatga molik hulosalar chiqarishimiz mumkin. Bu borada iqtisodiyotning shakillanish tarixi biz uchun g'oyat ibratlidir. O'z vaqtida Yaponiya mustaqil kapitalistik taraqqiyot yo'lini tanlagan birinchi va yagona Osiyo mamlakati edi. Bu yo'l o'ziga xos xususiyatga ega edi. Zero Yaponiya ushbu rivojlanishni sezilarli darajada sekinlashtiruvchi feodal tuzum sarkitlaridan tamomila kutulmagan edi.

Xuddi Germaniya kabi Yaponiya ham o'tgan asrda ikki marta harbiy mag'lubiyat alamini totgan. Va yana xuddi shunday tarzda u millatning eng sog'lom kuchlarini safarbar etgani holda jahonning etakchi davlatlari darajasiga ko'tarildi. 1946 yildan Yaponiya o'zining qisqa muddatlarda qudratli iqtisodiy davlatga aylanish bo'yicha stratetik rejasini izchil amalga oshira boshladi. Byudjet muvozanatini o'rnatish soliqlarni oshirish ish xaqqini to'lashdagi cheklashlar iqtisodiyotni barqarorlashtirish dasturining bosh yo'nalishlari bo'ldi. Natija kutilganidan ham zo'r bo'ldi. 1950 yildan 1990 yilgacha ishlab chiqarishning yillik o'sishi o'rtacha 7,7 foizni tashkil etdi. Xatto AQSH ham xuddi shu davrda yiliga o'rtacha daromadning atigi 1,9 foizlik o'sishga erishgandi. 1991 yilga kelib esa aholii jon boshiga yalpi milliy maxsulot hajmi bo'yicha Yaponiya jahonda Shvetsariyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallab AQSHdan ham o'zib ketdi. Jahon yalpi milliy maxsulotining 10 foizdan ko'prog'i uning qissasiga to'g'ri keldi. Bugungi kunda biz Yaponiyani yuqori texnologiyalar va rivojlangan telekommunikatsiyalar mamlakati sifatida bilamiz va ularning shiddatli taraqqiyoti manna shunday sifat o'zgarishlariga olib keldi. Biroq bu ham eng muhim emas.

Biz O'zbekistonliklar uchun Yapon tajribasidan eng qimmatlisi doimiy ravishda an'anaviy hayot qadriyatlariga tayanishdan iborat. Qashshoq va har jihatdan AQSHga qaram bo'lgan yaponlar urushdan keyingi og'ir davrlarda o'z madaniy-tarixiy meroslaridan yuz o'girmadilar, voz kechmadilar, milliy fazilat va sifatlaring o'ziga xosligi yo'kotmadilar. Binobarin aynan shu fazilatlar aniq-puxtalik, umum ishiga daxldorlik tuyg'usining shakllangani batartiblik lol qoldiradigan darajadagi mehnatsevarlik va fidoyilik ko'p jihatdan Yaponiya iqtisodiyotining tez kutarilishiga zamin yaratdi. Bu xolatlardan o'zbek xalqi ibrat olsa arziydi. Mehnatsevarlik biz o'zbeklarga ham xos fazilat.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan demokratik rivojlanish yo'liga tushib olgan jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rin va qarashlariga ega bo'lgan davlatlarga havas bilan qarab ular bilan qalin do'stlik va yaqin hamkorlik iplarini bog'lash O'zbekiston davlatining tashqi siyosatini belgilab beradi. Nafqat Yaponiya balki O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng barqaror mamlakat va ishonchli hamkor sifatida tan olмокda. Shu bois ham o'tgan yillar mobaynida ikki mamlakat o'rtasidagi barcha sohalaridagi o'zaro manfaat aloqalarimiz tobora rivojlanib bormoqda. Buning boisi bir tomondan Yaponiya O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo'lib tan olib ko'p o'tmay esa ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan bizda qadimiy Buyuk ipak yo'li orqali bog'langan umumiylik va o'xshashlikning mavjudligidir. Jumladan, kattaga xurmat, kichikka izzat, oilaga sadokat, saronjom – sarishtalik hullas barcha sharqona urf-odatlarimiz bir –biriga yaqin bo'lgan xalqlarmiz. Shuning uchun ham Yaponiya xalqi O'rta Osiyo xalqlari jumladan, O'zbekistonimizning mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lishidan manfaatdor mamlakatlar qatorida ekanligiga shubhamiz yo'k. Shuning uchun ham O'zbekiston hukumati va uning rahbariyati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq jahonning rivojlangan davlatlari qatorida Osiyodagi eng qudratli davlatlardan biri Yaponiya davlati bilan o'zaro aloqalarni mustaxkamlashga o'z etiborini qaratdi.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik gazlama va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish elektronika, mashinasozlik, kishlok hujalik maxsulotlarini qayta ishlab qo'shma korxonalar qurish kadrlar tayyorlash turizmni rivojlantirish va boshka sohalarda amaliy natijalar bermokda. Yaponiyalik hamkorlar O'zbekiston iqtisodiyotiga 1,6 milliard AQSH dollari hajmida sarmoya kiritdi. Ko'plab qo'shma korxonalar barpo etdi.

Madaniy sohalardagi hamkorlik aloqalari ham kadrlar tayorlash, ikki mamlakat mutaxasislari o'rtasida ilm-fan sohasidagi hamkorlik, turizm, sog'likni saqlash, san'oat sohalarida rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning o'tgan yillari ichida Yaponiya bilan olib borgan hamkorlik aloqalarini tadqiq etish ma'lum nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bu hamkorlik aloqalari tarixini taxlil etish, qiyoslash va umumlashtirish bizga quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar berish imkoni yaratdi.

- Respublikamizning iqtisodiyoti kundan-kunga barqarorlashib borayotgan hozirgi kunda iqtisodiyotni yanada barqarorlashtishga ko'prok xorijiy sarmoyalarni Respulika iqtisodiyotiga jalb qilishni takozo etadi. Ayniqsa, jahonda bugun kechayotgan moliyaviy inqiroz shariotida bu qo'l keladi. Buning uchun esa xorijlik samoyadorlar O'zbekistonga kirib kelishi uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish lozim deb o'ylaymiz.
- Ma'lumki. hozirgi kunda tashkil etilayotgan ba'zi qo'shma korxonalar xorijiy hamkorlarning iqtisodiy baquvvat bo'lmaganligi xom-ashyo maxsulotlarini vaqtida etkazib berilmasligi yoki shartnomalarda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarilmay kelayotganligi oqibatida ishlamay turibdi. SHuning uchun shunday ko'rsatkichlarga to'lakonli javob beradigan loyihalar amalga oshirilishi lozim.
- Ikki o'rtadagi o'zaro hamkorlik yanada jonlantirish borasida yaoniyalik ishbilarmon (tushunmadim) O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'proq jalb etishda o'zbek ishbilarmonlari tashabbuskorlik ko'rsatib O'zbekiston bilan hamkorlik qilishga kiziqqan firma va kompaniyalarni qidirib topib, ular bilan

to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni hech qanday vositachilarsiz amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, O'zbek-Yaponiya hamkorlik aloqalariga doir hamkorlikda hech bo'lmaganda yiliga ikki marotaba o'zbek, yapon, rus, ingliz tillarida nashr etiladigan jurnal yoki byulleten chiqarilsa iqtisodiy aloqalar yanada kengaygan bo'lar edi.

- O'zbek-Yapon aloqalarida madaniy sohalardagi hamkorlik alohida o'rin tutadi. Bu sohada esa hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun Yaponiyada O'zbekiston madaniyati haftaliklarini, O'zbekistonda esa. Yaponiya madaniyati haftaliklarini yanada ko'proq, keng ko'lamda tashkil etish, ikki davlat ilmiy-tadqiqot insitutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada jonlantirish lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. Т. "Шарк" 1998.
2. И.А.Каримов Юксак маънавият-енгилсам куч. Т.: Маънавият 2008.
3. И.А.Каримов Жаҳон молиявий инқироза, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. Т.: Ўзбекистон 2009.
4. Акрамов Э. Рол финансовой системы в развитие экономики Япония. Бозор, пул ва кредит. 2004 й. №4. 53-54 б.
5. Бекмуротов И. Ўзбекистон – Хитой манфаатлар муштираклиги. Жамият ва бошқарув. №4. 2004. 65-66 б.
6. Гулямов С.С., Ибрагимов Н.И., Дадабаев Ю.Т., Хаджаев Б.А Основу дипломатической деятельности Язбекистана. Т., «Янги аср авлоди», 2002,
7. Каримов Ш., Шамсутдинов О. Ватан тарихи. К.1.Т., «Ўқитувчи», 1997, 528-б.
8. Маннонов Б. Ўзбек дипломатиясининг тарихий – маънавий асослари. «Ўзбекистон тарихи», 2002, №2
9. Министерство иностранных дел Республики Ўзбекистан. Дипломатический корпус (справоник) Т., Тип.инфор-ного агентства «Жаҳон» при МИД Республики Узбекистан, 1998, 138 с.
10. Нормативное документу. Дипламатия Республики Ўзбекистан (справочник дипломата). Т., Тип инфорного агенства «Жахон», 1997, 33 с.
11. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Кадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. Т., «Адолат», 2001, 426-б.
12. Сагдуллаев А., Мавлонов У., Норкулов У, Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлатчилик ва жамият тараққиёти. 1 қисм. Т., «Академия», 2002 71-б.
13. Саидов А.Х. Халқаро ҳуқуқ. Т., «Адолат», 2001, 369 б.
14. Тараққиёт ва ҳамкорлик йўлларида. Ўзбекистон ташқи сиёсати ва дипломатияси. Т., «Ўзбекистон», 1993, 239-б.

15. Темир тузуклари. Форсчадан А.Соғуний ва Х.Караматов таржимаси. Т., Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 1996, 344 б.
16. Тюриков В., Шоғуломов Р. Мустақил Ўзбекистон Республикаси унитилмас воқеалар ва саналар. (1991-1996). К.2.Т., «Ўзбекистон», 2000, 431 б.
17. Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиклол йилномаси. Ўзбекистон Республикаси: Одамлар, саналар, вақеалар. (1991-2001). Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 2001, 168 б.
18. Тюриков В., Шоғуломов Р. Ўзбекистон Республикаси: 100 саволга 100 жавоб. 2-китоб. Т., «Ўқтиувчи», 2001, 168 б.
19. Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йўли. Т., «Шарқ». 1999. 224 б.
20. Ўзбекистон Республикаси – мустақил давлат. Т., «Фан». 1994, 232 б.
21. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет муштамлакачилик даврида. Т., «Шарқ». 2000. 688 б.
22. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.3. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Т., «Шарқ». 2000. 560 б.
23. Ўзбекистон тарихи: қисқача маълумотнома. Т., «Шарқ». 2000. 400 б.
24. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т., «Ўзбекистон». 1992, 46-б.
25. Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш. Т., «Ўзбекистон». 2001. 463 б.
26. Қосимов Р., Содиков М. Мустақиллик – олий неъмат. Т., «Шарқ». 2000. 112 б.
27. Жўраев Н., Файзуллаев Т., Усмонов К. Ўзбекистон тарихи. Т., «Шарқ». 1998 й. 231 бет.
28. Жўрахонов Ф. Китайская народная Республика: опут вступления в ВТО. Бозор, пул ва кредит. 2004 й №1. 62-64 б.
29. Шодмонов Х.Японияда суд тизими. «Хаёт ва қонун». 2004 й. №6. 38 б.
30. Қудратхўжаев Ш., Қирғизбоев А. Ўзбекистон – Япония: ўзбек дипломатиясининг янги босқичи. Т.: 2002.

31. Усмонов Қ. Ўзбекистон тарихи. Миллий истиқлол даври. Тошкент: O`qituvchi, 2017.-Б.327.
32. Shamsutdinov R., Mo`minov X. O`zbekiston tarixi.-Toshkent: SHARQ,2013.-Б.671.